

# POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan  
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ  AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

## YURAKDA SADOQAT, SAFDA MAG'RURLIK

El-yurt tinchliligi va osoyishtaligini saqlash muqaddas burchdir. Bugun dilida vatanparvarlik tuyg'usi jo'sh urgan, kuch-g'ayratga to'lib-toshgan, qalbida yuksak ishonch bilan safda mag'rur turgan minglab o'g'il-qizlarimiz hayotida ana shu oliy sharafiga muyassar bo'lish onlari keldi.

Qo'lida qasamyod matni va qalbida cheksiz g'urur bilan saf tortgan yigit-qizlar bugundan sharaflil burchini bajarishga kirishdilar. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining o'quv-dala poligonida jismoniy-jangovar hamda harbiy tayyorgarlikdan o'tib, mashg'ulotlarda toblangan, huquq-tartibot posboni ekanligini yurakdan his etgan kur-

santlar qasamyod qabul qildilar. Mushtarak maqsad birlashtirgan bu yoshlarning dillarini hayajon titrog'iga solib jaranglagan har bir jumla kursantlarning Vatanga bo'lgan sadoqatini, uning tinchliligini ko'z qorachig'idek asrash yo'lidagi qat'iyatini namoyon etdi.

(Davomi 4-betda.)



## ISHONCH YULDUZLARI



Bugun mamlakatimizda yurt tinchliligi, jamoat xavfsizligi va xalq osoyishtaligini ta'minlashdek mas'uliyatli vazifani bajarishda xotin-qizlarning hissi beqiyos. Ularning burchiga sadoqati, tashabbuskorligi va mas'uliyatli mehnati davlatimiz tomonidan yuksak qadrlanmoqda. Ana shunday

fidoyi va o'z kasbining haqiqiy mutaxassislari-dan biri — Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati Axborot xizmati yetakchi mutaxassisi Dilnoza Redjabovadir. Qariyb yigirma yildan buyon ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilib kelayotgan

bu ayolning bosib o'tgan yo'li, erishgan yutuqlari va eng muhimi — yosh avlod qalbida xavfsizlik madaniyatini shakllantirishdagi tinimsiz mehnati xodimlar uchun munosib ibrat maktabidir.

(Davomi 3-betda.)

## Xalqaro aloqalar

# MINTAQAVIY XAVFSIZLIK YO'LIDA YANA BIR MUHIM QADAM

OSTONADA TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTIGA A'ZO MAMLAKATLAR  
ICHKI ISHLAR VAZIRLARINING UCHINCHI YIG'ILISHI BO'LIB O'TDI

Joriy yilning 10-sentabr kuni Ostona shahrida Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar ichki ishlar vazirlarining uchinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Tadbir Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlarning, xususan, O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya ichki ishlar vazirliklari delegatsiyalari, shuningdek, tegishli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar vakillari ishtirok etdi.



Tadbir doirasida dastlab delegatsiya rahbarlari Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev qabulida bo'lishdi. Uchrashuvda bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, zamonaviy tahdid va chaqiriqlarga qarshi samarali chora ko'rishda turkiy davlatlar o'rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlandi. Qozog'iston Prezidenti Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ichki ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlikning izchil rivojlanayotganini qayd etib, transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamjihatlik va muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni kuchaytirish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida tajriba va tezkor axborot almashinuvini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish hamda xavfsizlik sohasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi amaliy tashabbuslar bilan boyitish muhimligi qayd etildi.

Uchrashuvdan so'ng Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar ichki ishlar va-

zirlarining uchinchi yig'ilishi o'z ishini boshladi. Yig'ilish kun tartibida jinoiy ta'qibdan yashirib yurgan shaxslarni, shuningdek, bedarak yo'qolgan fuqarolarni qidirish borasida hamkorlikni yanada kuchaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bunda ichki ishlar organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini tezlashtirish, qidiruv tadbirlarini muvofiqlashtirish va bunday shaxslarni aniqlash hamda topish samaradorligini oshirish muhim vazifa sifatida qayd etildi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Ayniqsa, raqamli muhitda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga tezkor munosabat bildirish va davlatlar o'rtasida kerakli axborot bilan tezkor almashish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi. Noqonuniy bukmekerlik faoliyati va qimor o'yinlari bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashishda hamkorlikning aniq va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhimligi qayd etildi. Ekstremizm va terrorizm, shu-



ningdek, transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi ham yig'ilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Ushbu tahdidlarning chegara bilmas xususiyatidan kelib chiqib, tezkor axborot almashinuvi, qo'shma chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish va ichki ishlar organlari o'rtasida amaliy hamkorlikni yanada kuchaytirish yuzasidan fikr almashildi. Odam savdosi va migrantlarni noqonuniy olib o'tishning oldini olish hamda bunday jinoyatlarga chek qo'yish masalalariga to'xtalib o'tildi. Tartibga solinmagan migratsiyaga qarshi kurashishda ma'lumot almashinuvini kuchaytirish, noqonuniy migratsiya va u bilan bog'liq jinoyatlarning tarqalishiga zamin yaratayot-

gan omillarni bartaraf etish, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan choralarni yo'lga qo'yish muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda yana bir muhim tashabbus – Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davlatlar o'rtasida Jinoyatchilikka qarshi kurashish kengashini tashkil etish masalasi muhokama qilindi. Mazkur tuzilmani tashkil etish bo'yicha bitim loyihasini tayyorlash va uni TDT ichki ishlar vazirlarining navbatdagi yig'ilishida imzolash uchun kiritish masalalari yuzasidan tegishli takliflar bildirildi. Muhokamalar davomida mazkur tashabbuslar turkiy davlatlar o'rtasida xavfsizlik va huquq-tartibot sohasida-

gi hamkorlikni institutsional jihatdan mustahkamlash, umumiy tahdidlarga qarshi birgalikda va tizimli chora ko'rish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi qayd etildi.

Tadbir yakunida erishilgan kelishuvlarni mustahkamlash va ularning amaliy ijrosini ta'minlashga qaratilgan Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar ichki ishlar vazirlarining uchinchi yig'ilishi qo'shma kommyunikesi imzolandi. Yig'ilish natijalariga ko'ra, ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlarni uyg'unlashtirishga kelishib olindi.

O'z muxbirimiz.

## 12 MILLIARD DOLLARLIK LOYIHALAR VA YANGI MINTAQAVIY TASHABBUSLAR

O'zbekiston-Janubiy Koreya hamkorligi yangi bosqichga chiqmoqda: 14-sentabr kuni Seulda Prezident Shavkat Mirziyoyev va Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myon muzokara o'tkazib, umumiy qiymati qariyb 12 milliard dollarlik istiqbolli loyihalar portfelini shakllantirdi. Shuningdek, Koreya Eksimbanki bilan 8 milliard dollarlik Strategik hamkorlik dasturi qabul qilindi. Tomonlar muhim minerallar, transport va infratuzilma, tibbiyot, farmasevtika, axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik sohalarida innovation-texnologik alyansni rivojlantirishga kelishdi. 16-sentabr kuni esa Seulda birinchi «Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi» sammiti bo'lib o'tdi. Unda Shavkat Mirziyoyev savdo-iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish, 2030-yilga qadar mintaqaviy mamlakatlari va Koreya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmini 20 milliard dollarga yetkazish, muhim minerallar bo'yicha mintaqaviy investisiya alyansini shakllantirish, «Markaziy Osiyo – Koreya» sanoat-texnologik parkini O'zbekistonda tashkil etish, iqlim va uglerod hamkorligini yo'lga qo'yish hamda inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surdi. Sammit yakunida Seul deklaratsiyasi qabul qilindi.



## O'ZBEKISTON IMPORTI 7 OYDA 17,8 FOIZGA O'SDI

O'zbekistonning tashqi savdosida import hajmi tez o'smoqda: 2026 yil yanvar-iyul oylarida mamlakat 29,6 milliard dollarlik tovar va xizmatlar import qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,8 foiz ko'p. Import tarkibida mashina va transport uskunolari eng katta ulushni egallab, 9,7 milliard dollar yoki jami importning 32,8 foizini tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda sanoat mahsulotlari — 4,4 milliard dollar, kimyoviy vositalar — 3,6 milliard dollar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar — 3,3 milliard dollar bilan qayd etildi. Importning asosiy qismi Xitoy hissasiga to'g'ri kelib, u yerdan 9,6 milliard dollarlik tovar va xizmatlar olib kirilgan; Rossiya — 5,3 milliard, Qozog'iston — 2,4 milliard dollar bilan keyingi o'rinlarda.



E'tirof

# ISHONCH YULDUZLARI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Dilnoza Redjabovaning faoliyati markazida aynan shu ezgu g'oya – yo'l harakati xavfsizligi targ'iboti, aholiga qoidalarni sodda, tushunarli yetkazish hamda yoshlarda xavfsiz harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi mujassamlashgan. Uning yondashuvi quruq da'vat yoki rasmiy topshiriqlar ijrosidan iborat bo'lmay, balki bolalar qalbiga yo'l topa oladigan, qoidalarni amaliy va ko'rgazmali usulda o'rgatuvchi loyihalar bilan ajralib turadi. Jumladan, Toshkent shahrining Olmazor tumanidagi 441-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida yo'lga qo'yilgan maxsus dastur bunga yorqin misoldir. Kichiktoylar uchun o'tkazilayotgan mashg'ulotlar orqali ular ko'chada xavfsiz harakatlanish, piyodalar o'tish joylaridan to'g'ri foydalanish, svetofor ishoralari va yo'l belgilariga amal qilishni qiziqarli va o'yin tarzida o'rganmoqdalar. Bolakaylarning ongida shakllangan bu oddiy ko'nikmalar kelajakda minglab ko'ngilsizliklarning oldini olishi shubhasiz.

Dilnoza Redjabovaning tashkilotchilik va murabbiylik sohasidagi mehnatlari nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro miqyosda ham yuksak e'tirofga sazovor bo'lib kelmoqda. U bir necha yillar davomida o'quvchi yoshlardan iborat yo'l harakati

xavfsizligi targ'ibotchilari guruhini sabr-toqat va yuksak kasbiy mahorat bilan tarbiyalab keldi. Bu tinimsiz mehnatlar o'z mahsulini berdi: vakillarimiz 2024-yilda Qirg'iziston hamda 2025-yilda Tojikistonda o'tkazilgan xalqaro tanlovlarda faxrli 2-o'rinni egallagan bo'lsa, shu yilning avgust oyida Qozog'iston Respublikasida o'tkazilgan «Yosh yo'l harakati inspektorlari» xalqaro musobaqasida mutlaq zafar quchib, 1-o'rinni qo'lga kiritdilar. Bu g'alabalar ortida tunlarni kunga ulab qilingan mehnat, yoshlar qalbiga singdirilgan ishonch va yuksak vatanparvarlik tuyg'ulari mujassamdir.

Ko'p yillik samarali va fidokorona xizmati, erishgan natijalari hamda o'z xizmat vazifalariga bo'lgan yuksak mas'uliyati inobatga olinib,



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan, Ichki ishlar vazirining buyrug'i bilan Dilnoza Redjabova munosib rag'batlantirildi – unga «polkovnik» maxsus unvoni berildi. Bu nafaqat shaxsiy yutuq, balki tizim tarixidagi muhim voqeadir: Dilnoza Redjabova Yo'l harakati xavfsizligi xizmati ayol xodimlari orasida birinchi bo'lib polkovnik maxsus unvoniga erishdi. Bundan tashqari, u joriy yilda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xotin-

qizlarining V Respublika forumi g'oliblari qatoridan munosib o'rin oldi.

– Muhtaram Prezidentimiz va vazirligimiz rahbariyati tomonidan bildirilgan bu yuksak ishonch va berilgan «polkovnik» unvoni zim-mamdagi mas'uliyatni o'n chandon oshiradi. Men bu e'tiborni nafaqat shaxsiy mehnatimga, balki tizimda sidqidildan xizmat qilayotgan barcha xotin-qizlarimizga berilgan yuksak baho deb bilaman. Xalqimiz osoyishtaligi, yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash va jajji farzandlarimiz ongida tartib-intizom madaniyatini shakllantirish yo'lida kuch-g'ayratimni ayamayman, – deydi lavhamiz qahramoni.

Polkovnik Dilnoza Redjabovaning faoliyati ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan har bir xodima uchun, ezgulik va burchga sadoqat bilan yashashni maqsad qilgan har bir ayol uchun chinakam ibrat namunasidir. Uning yo'llarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, bolalar sog'lig'i va hayotini asrashga qaratilgan ezgu ishlari – bugungi kunimiz tinchligi va kelajagimiz osoyishtaligi uchun qo'shilayotgan bebaho hissadir. Yelkasidagi polkovniklik unvonining zarrin yulduzlari esa xalqimiz ishonchi va Vatanimizga bo'lgan cheksiz muhabbatning yorqin timsoli bo'lib porlayveradi.

**Abror POYONOV,**  
katta mutaxassis-muxbir,  
katta serjant.



## Qasamyod

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Yangi O'zbekiston ichki ishlar organlari xodimlari safiga qo'shilgan kursantlarning qasamyod qabul qilish marosimi IIV Akademiyasida ko'tarinki ruhda tashkil etildi. Tan-tanali tadbirda Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov Uchinchi renessans bunyodkorlari bo'lgan bu yigit-qizlarga bildirilayotgan ishonch bir necha yillar o'tib, albatta, o'z natijasini berishini ta'kidladi. Ularga bilim olish, o'z



# YURAKDA SADOQAT, SAFDA MAG'RURLIK

ustida ishlash uchun yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanib, huquqni muhofaza qilish va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini mukammal o'rganish asosiy vazifa ekanligi uqtirildi.

Kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish va raqamli ta'lim muhitini yaratish yo'lida Akademiya infratuzilmasi tubdan modernizatsiya qilinib, eng so'nggi texnologiyalar bilan jihozlangan yangi innovatsion bino va inshootlar barpo etilmoqda. Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida Iqtidorli kursantlar kengashi tashkil etilib, bilimli, tashabbuskor va fidoyi kursantlar uchun Jaloliddin Manguberdi nomidagi stipendiya, «Akademiya a'lochisi», «Iqtidorli kursant» ko'krak nishonlari hamda «Cho'lpon» ko'krak nishoni va stipendiyasi ta'sis etildi.

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori asosida endilikda Akademiya ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi asosida tashkil etiladi. Kursantlar birinchi kursdan boshlab IIV sohaviy xizmatlari va hududiy bo'linmalariga biriktirilib, bitiruvchi kurs kursantlariga o'qishni yakunlagunga qadar «katta serjant» maxsus unvoni

beriladi. Ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida jamlab borish maqsadida yaxlit raqamli portfolio yaratilib, kadrlarning xizmat faoliyatidagi o'sish salohiyatini prognoz qilish va ularga «istiqbolli karyera» modeli bo'yicha tavsiyalar berish amaliyoti joriy etiladi. Muxtasar aytganda, ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning yagona, uzluksiz va zamonaviy tizimi yo'lga qo'yilib, ta'lim sifati va samaradorligi mutlaqo yangi bosqichga olib chiqiladi.

Shundan so'ng kursantlarning qasamyodlarida keltirilgan va'dalari qabul qilinib, Akademiya imzosiga aylangan an'anaviy safyurishi boshlandi. Har bir kursant qasamyodini diliga joylab, vazirlik rahbariyati, nufuzli mehmonlar, shaxsiy tarkib va ota-onalarining ko'zi oldida Vatanga, xalqiga va Prezidentiga sadoqat bilan xizmat qilishga ahd qildilar.

Shuningdek, tadbirda bir guruh yuqori bosqich kursantlariga stipendiya guvohnomalari ham topshirildi. Xususan, 2-bosqich kursantlari Ruxshona Murodillaeva, Akobir Fayzulloyev hamda 3-bosqich kursantlari Sevinch Ochilova va Elbek Azimov «Ichki ishlar

vaziri stipendiati» faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi. «Ichki ishlar vazirligining Jaloliddin Manguberdi nomidagi stipendiati» faxriy yorlig'i esa 2-bosqich kursanti Abubakir Isoxonov va 3-bosqich kursanti Diyorbek Kamoldinovga topshirilgan bo'lsa, 3-bosqich kursanti Sarvinoz Umarova «Oliy Bosh qo'mondon» davlat stipendiyasi sohibi sifatida e'tirof etildi.

Tadbirda so'z olganlar bugungi kunning bo'lajak ofitserlar faoliyatidagi ahamiyati, Akademiyada Yangi O'zbekiston ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash uchun so'nggi yillarda yo'lga qo'yilgan o'ziga xos tizim, ota-onalarning farzandlaridan kutayotgan yuksak natijalari haqida to'xtalib, yoshlarga yana bir bor ishonch bildirishdi. Quvonch ko'z yoshlari bilan farzandini quchayotgan ota-onalar, aka-yu opalariga havas bilan boqib turgan jajji bolajonlar bugun ularning muvaffaqiyatidan va Vatan osoyishtaligini ta'minlashdek sharaflı burchga bel bog'laganidan faxrlanmoqdalar.



**Abror POYONOV,**  
katta mutaxassis-  
mxbir, katta serjant.



## TIZIM FAOLIYATIDAN LAVHALAR



Xorazm viloyati IIBda xizmat faoliyati o'rganilib, xodimlar uchun yaratilgan sharoitlar hamda yoshlar bilan ishlash masalalariga e'tibor qaratildi.



Toshkent shahar Bektemir tumanidagi kriminogen vaziyat tanqidiy-tahliliy muhokama qilindi.



Nukus shahrida «Chilonzor tajribasi» asosida mahallalarga biriktirilgan xodimlar tomonidan jinoyatchilikning oldini olish borasida mahallalarda targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi.



Farg'ona viloyatida kiberjinoyatlarning barvaqt oldini olish bo'yicha targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda.



Sirdaryo tomonlarda

# YANGI YONDASHUVLAR VA ILG'OR AMALIYOTLAR

**El-yurt tinchligi va farovonligi, eng avvalo, inson o'z mahallasida, ko'chasida va xonadonida o'zini qanchalik xavfsiz his qilishi bilan o'lchanadi. Shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash strategiyasi tubdan qayta ko'rib chiqilib, huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish ustuvor vazifa etib belgilandi.**

Mazkur islohotlarning ijrosini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov boshchiligidagi ishchi guruh Sirdaryo viloyatida bo'lib, hududdagi kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, jinoyatchilikning oldini olish hamda sohaviy xizmatlar faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi ishlarni o'rgandi.

Sirdaryo tumanidagi «Kamolot» mahallasida mahalla yetiligining o'zaro hamkorligi, xususan, profilaktika inspektorining muammoli toifadagi shaxslar bilan manzilli ishlash holati ko'zdan kechirildi. Shuningdek, tuman IIB Navbatchilik qismi faoliyati hamda xodimlar uchun yaratilgan sharoitlar tahlil qilindi. Har bir fuqaroning murojaatiga tezkor va



samarali munosabat bildirish zarurligi ta'kidlandi.

Yangiyer shahridagi «Sun'iy intellekt va kiber markaz» faoliyati bilan tani-shuv jarayonida robototexnika xonalari ko'zdan kechirilib, yoshlarning kiberxavf-

sizlik bo'yicha bilimlarini oshirishga qaratilgan loyihalar taqdimoti tinglandi. Shuningdek, o'rganishlar davomida bir qator boshqa muhim obyektlar ham ko'zdan kechirildi. Xususan, Xovos tumanidagi qurilish

ishlari jadal olib borilayotgan 8-sonli tergov hibsonasi hamda tuman IIBdagi sharoitlar o'rganildi.

Guliston shahridagi «Obod yurt» mahallasida nuroniylar bilan ochiq muloqot qilinib, fuqarolik jamiyati institutlari

va mahalla faollari bilan hamkorlikning ahamiyati yana bir bor qayd etildi. Viloyat IIBda JTSB TVBSO uchun yangidan barpo etilayotgan ma'muriy bino, «Dinamo» sport majmuasi hamda avtoturargohning moddiy-texnik bazasi ko'zdan kechirildi.

Viloyat IIBda o'tkazilgan yig'ilishda soha rahbarlariga hududlardagi kriminogen vaziyatni yanada sog'lomlashtirish, mavjud muammolarni kechiktirmasdan, manzilli hal etish hamda aholi osoyishtaligini ta'minlash bo'yicha aniq topshiriqlar berildi. Eng asosiysi, viloyatda jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha «Sirdaryo tajribasi»ni yaratish hamda uni amaliyotga keng joriy etish yuzasidan dolzarb vazifalar belgilab olindi.

**Feruz YO'LDOSHOV,**  
o'z muxbirimiz.

## HUDUD YANADA XAVFSIZ, OSUDA BO'LSIN

**Ayni kunlarda Sirdaryo viloyatining barcha hududlarini qamrab olgan muhim tadbir – «Xavfsiz Sirdaryo» profilaktik oyligi o'tkazilmoqda. Viloyatning barcha huquq-tartibot organlari hamkorligida tashkil etilayotgan ushbu oylik jamoat tartibi va xavfsizligini himoya qilish choralari kuchaytirishga qaratilgan. E'tiborlisi, profilaktik tadbirlar keng jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Tadbirda kriminogen vaziyati murakkab bo'lgan mahallalarda aholi bilan uchrashuvlar tashkil etish, nizoli oilalarni yarashtirish, probatsiya nazorati hamda yo'l harakati xavfsizligi choralari kuchaytirish, giyohvandlik, o'g'rilik, bezorilik, kiberfiribgarlik kabi jinoyatlarga qarshi kurashish, kriminogen vaziyatni yanada barqarorlashtirish rejalashtirilgan.**

Oylik doirasida viloyatning bir qator hududlarida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar o'rganildi. Yangiyer shahrida o'tkazilgan ana shunday o'rganishda viloyat IIB boshlig'i va boshqa mas'ul rahbarlar qatnashdi. Dastlab shahar mutasaddilari ishtirokida «Yangi O'zbekiston» massivida gi yettilik faoliyati, jinoyatchilik ko'rsatkichlari, shuningdek, kuzatuv kameralari bilan qamrab olinganlik darajasi hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash choralari ko'zdan kechirildi. O'rganishlar davomida massiv Toshkent–Termiz avtoma-

gistrali bo'yida joylashgani, yosh bolalar va piyodalar xavfsizligini yanada kuchaytirish zarurligi uqtirildi. Shuningdek, hududda zamonaviy kuzatuv kameralari sonini oshirish, ularni markazga integratsiya qilish choralari belgilandi.

Sardoba tumani «Do'stlik» mahallasida o'tkazilgan targ'ibot tadbirining bosh mavzusi – o'g'rilik hamda kiberjinoyatchilikning oldini olish bo'ldi. Yig'ilishda tuman hududida chorva mollari o'g'riligi bilan bog'liq jinoyatlar ortib borayotgani ta'kidlandi. Buning asosiy sababi sifatida fuqarolarning o'z mol-mulkini qarovsiz qoldirayotgani ko'rsatildi.

Profilaktik tadbirlarda viloyat IIB JXX JTSB xodimlari ham faol ishtirok etmoqda. Ular tomonidan joylarda jamoat xavfsizligini saqlash choralari kuchaytirilib, aholi orasida keng tushuntirish ishlari olib borilyapti. Jumladan, boshqarmaning PPX xodimlari tomonidan ko'chalar, xiyobonlar, dam olish maskanlari, savdo majmualarida o'g'rilik, tovlamachilik, kiberfiribgarlik jinoyatlarining kelib chiqish mohiyati, ularga qarshi kurashish choralari bag'ishlangan turli suhbatlar o'tkazilyapti. Aholiga bukletlar va boshqa targ'ibot materiallari tarqatilyapti.

Viloyat IIB mas'ul rahbarlari tomonidan Boyovut tumanining «Navro'z» mahallasida o'tkazilgan sayyor qabulda o'ndan ortiq murojaatlar qabul qilindi. Aholi bilan qilingan muloqot tezda o'z samarasini berdi. Mahalladagi elektr, gaz, ichimlik suvi ta'minotiga oid ayrim muammolar

bartaraf etilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga ko'mak ko'rsatildi. Bir necha yoshlarning oliy ta'lim olishga oid kontrakt to'lovlari masalasi hal etildi.

Sayxunobodning «Baxmalsoy» mahallasida o'tkazilgan tadbirda bir necha nizoli oila a'zolari bilan uchrashilib, tuman IIB rahbariyati tomonidan mahalla nuroniylari, faollari ishtirokida oilalardagi ijtimoiy muammolarni bartaraf etish choralari ko'rildi.

Viloyat IIB YHXB inspektorlari esa avtobekatlar, korxona va tashkilotlar, o'quv maskanlarida yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya etilishiga oid turli uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etmoqda. Yo'lovchi tashish, moped va skuterlarda harakatlanish, piyodalar harakatini tartibga solish bo'yicha bir qancha nazorat reydlari o'tkazildi.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Sirdaryo viloyati.*



## Ijtimoiy himoya

## «SIZLARNI YOLG'IZ TASHLAB QO'YMAYMIZ...»

El tinchligi, osoyishtaligi va yo'llarda xavfsizlikni ta'minlashdek sharaflari va mas'uliyatli vazifani bajarayotgan ichki ishlar organlari xodimlari ko'rsatayotgan fidoyilikning bahosi ayrim vaziyatlarda juda og'ir bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Farg'ona viloyati IIB JXX YHXB Yo'l-patrul xizmati batalyoni tumanlararo YPX otryadi inspektori, safdor Sarvarjon Egamberdiyev ham ana shunday fidoyi xodimlardan biri edi. U 2025-yil 28-iyul kuni xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'ldi.

Safдор Sarvarjon Egamberdiyevning bevaqt vafoti oilasi uchun og'ir musibat bo'ldi. Turmush o'rtog'i Gullolaxon Egamberdiyeva uch nafar farzandi bilan beva qoldi. Bir oila boquvchisidan, uch nafar farzand esa mehribon otasidan ayrildi. Biroq Sarvarjonning safdoshlari, soha rahbarlari va hamkasblari uning oilasini yolg'iz qoldirmaslikka harakat qilmoqda.

Yaqinda viloyat IIB JXX Yo'l harakati xavfsizligi



boshqarmasi rahbariyati tashabbusi bilan Gullolaxon Egamberdiyeva oilasi istiqomat qiladigan Rish-ton tumani "Pandigon" mahallasidagi 14-umum-ta'lim maktabi hududi-da savdo do'koni qurib berildi. Do'konda kitoblar, kanselyariya mollari, o'quv qurollari savdosi yo'lga qo'yildi.

Mustaqillik bayrami kun-larida viloyat ichki ishlar

boshqarmasi hamda Yo'l harakati xavfsizligi bosh-qarmasi rahbariyati, soha faxriylari ishtirokida do'kon Gullolaxon Egamberdiyeva-ga topshirildi.

– Biz sizlarni hech qachon yolg'iz tashlab qo'ymaymiz, – dedi viloyat IIB JXX YHXB boshlig'i, polkovnik Farhod Shayzoqov. – Xumoyun-mirzo, Bibisora va Mustafo bizning ham farzandlarimiz. Ularning yaxshi o'qib, komil

inson bo'lib voyaga yetishida qo'limizdan kelgancha yor-dam beramiz.

– Turmush o'rtog'imdan ayrilganimizdan keyin uch nafar farzandim bilan hayotni davom ettirish oson bo'lma-di, – deydi ayol ko'zda yosh bilan. – Ayniqsa, farzand-larimning kelajagi, ularni qanday qilib voyaga yetka-zish haqida ko'p o'ylardim. Shunday og'ir kunlarda bizni yolg'iz qoldirmagan, oilamiz

holidan xabar olib turgan viloyat Ichki ishlar boshqar-masi rahbariyati va turmush o'rtog'imning hamkasblari-dan minnatdorman. Kelajak-da bu do'konni rivojlantirib, farzandlarimni hech kimdan kam qilmagan holda, otasiga o'xshab el koriga yaraydigan inson qilib tarbiyalayman.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
**o'z muxbirimiz.**

*Farg'ona viloyati.*

## Insonparvarlik



## AFV – EZGU AMAL IFODASI

**Ba'zan inson hayotidagi eng muhim burilish oddiy e'tibor, samimiy ishonch va berilgan birgina imkoniyatdan boshlanadi. Kechagi xatolar har doim ertangi kun taqdiriga hukm bo'la olmaydi. Asosiysi, noto'g'ri bosilgan qadamlar intihosidan tegishli va to'g'ri xulosa chiqarish, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishdir.**

Yurtimiz mustaqilligining 35 yillik shodiyonasi arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmo-niga muvofiq, 852 nafar shaxs afv etildi. Bu raqamlar ortida faqatgina mahkumlar taqdiri emas, ota-onalar quvonchi, farzandlar sog'inchi, yaqinlar mehr-muhabbati mujas-sam...

Afv etilganlarning 163 nafari IIV Jamoat xavfsizligi departamen-ti Probatsiya boshqarmasining hududiy bo'linmalari nazoratiga olinib, yashash manzillariga yetib borishlari to'liq ta'minlandi. Ular-ning 112 nafari muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etildi, 51 na-fariga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlandi.

Afvning mohiyati jazodan ozod etish bilangina cheklanmaydi. Ol-dinda turgan vazifalar yanada muhim: nazoratdagi shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish, profilaktik suhbatlar tashkil etish, psixologlar ishtirokidagi qayta ji-



noyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, bandligiga ko'maklashish va hokazo. Negaki, probatsiya nazorati – jazolash chorasini emas, aksincha, to'g'ri yo'lni tanlagan insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularning hayoti-da yana xato qilishiga yo'l qo'ymaslik vositasiga aylandi. Hududlarda

hokimliklar vakillari hamda ichki ishlar organlari rahbarlari ishtirokida nazorat ostidagi shaxslar bilan pro-filaktik yig'ilishlar o'tkazildi. Ularning ijtimoiy muammolarini hal etish, bir martalik moddiy yordam olishiga ko'maklashish choralari ko'rilib, har biriga yashash hududidan murabbiy-

lar birlashtirildi. Nazoratdagilarning barchasi chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, 10 nafar shaxs-ga tibbiyot muassasalarida bepul davolanishlari uchun yo'llanma berildi, 26 nafariga ID-karta olishida amaliy yordam ko'rsatildi, bir nafari-ga yoshga doir pensiya tayinlandi.

Halol mehnat insonni moddiy ta'minlaydi, jismoniy toblaydi, ma'naviy va ruhiy tarbiyalaydi. Shu bois 80 nafardan ortiq nazorat-dagi shaxslar ishga joylashtirildi, 15 nafarga yaqini hozirda qayta kasbga o'qitilmoqda. Inson taqdi-rini o'zgartirish faqat bir tashkilot yoki tizim zimmasidagi vazifa emas. Bu ezgu amallar jarayonida oila, mahalla, jamoatchilik vakillari va mehnat jamoalarining ham mas'uli-yati yuqori.

Adashganlarga bag'rikenglik bilan yordam qo'lini uzatish – saxo-vatpeshalik, o'zini tiklashlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berish – chinakam insonparvarlik-niing yuksak namunasi. Probatsiya nazorati ostida turgan shaxslar zimmasida bildirilgan ishonchni oqlash, halol mehnat qilish, oilasi va jamiyatga naf keltirish, ezgu amallari bilan o'z kelajagini bun-yod etishdek katta mas'uliyat ham bor. Eng muhimi, ular ortda qolgan yillarda qaysi yo'lni bosib o'tgani emas, kelajakda to'g'rilikka, halol-likka intilayotganida!

**Dilrabo ABDUHAMIDOVA,**  
**mutaxassis-muxbir,**  
**katta leytenant.**

**B**ugun Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mohiyati inson qadrini yuksaltirish, xalq farovonligi uchun munosib sharoit yaratishdan iborat. Bu ezgu yo'lda aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, yangi uy-joylar barpo etish, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. E'tiborga molik jihati, har qanday islohotning maqsadi, avvalo, oilani mustahkamlash bilan bog'liq.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek: «Oila – jamiyatning tayanchi, millat ma'naviyati va qadriyatlarining mustahkam qo'rg'oni». Bu fikr zamirida chuqur ma'no mujassam. Zotan davlat qonun bilan boshqariladi, ammo jamiyatni insoniylik, mehr-oqibat va oilaviy tarbiya saqlab turadi.

Oila asosini mustahkam qurmasdan, yosh avlodni to'g'ri tarbiyalamasdan jamiyatni isloh qilish

Bolajon oltinchi sinfda o'qirgan. Uning ko'zlarida bolalarga xos beg'uborlik emas, kattalarga xos xavotir bor edi.

– Ovora bo'lib kelibsizlar... Bari-bir, ukalarimni hech kimga bermayman, – dedi salom berarkan. Onasi hayotligidagi og'ir tunni eslarkan, bolani ulg'aytirgan dardni his qildim. Otasi avtohalokatda vafot etgan. Onasi esa og'ir xastalik bilan kurashib, kun sayin so'nib borardi. O'sha

yo'lagida yuzi ko'kargan qizaloqni ko'rib qoldim. Qiziqsinab so'ragandim, «Akam urdilar... xot-dogining yarmini yeb qo'yganim uchun», dedi u ko'z yoshlarini yashirib. Bu oddiy holat emas, oila muhiti buzilgan joyda mehr o'rnini moddiy hisob-kitoblar egallab borayotganining achchiq dalilidir. Holbuki, oila nonni talashadigan emas, mehrni bo'lishadigan muqaddas maskan emasmi?! Ukalarining qorni to'q bo'lishi uchun o'z bolaligidan kechgan o'smirni ham, bir bo'lak yegulik uchun singlisini urgan akani ham aynan oila tarbiyalaydi. Birinchi misol, mehr va fidoyilik bilan saqlab qolingani oila millatni qudratli qilishini ko'rsatsa, ikkinchisi, sovuq va begona muhit ertaga jamiyatga qanday muammolarni olib kelishini anglatadi.

Shuning uchun ham bugun mamlakatimizda oilani mustahkam-



Videodarslik



**Munavvara USMONOVA,**  
«Saodat» jurnali bosh muharriri,  
O'zbekistonda xizmat  
ko'rsatgan madaniyat xodimi

qizlar bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish dasturlari – bularning barchasi, avvalo, xonadonda osoyishtalik va barqarorlik muhitini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

## OILA MUSTAHKAMLIGI – JAMIYAT TARAQQIYOTI GAROVI

va uni taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas. Oxir-oqibat millat taqdiri oilalarning ahvoliga bog'liq. Bu g'oya buyuk ma'rifatparvar Abdurauf Fitratning «Oila» asaridagi

mash'um kechada bola yalangoyoq holda qo'shni mahalladan shifokorni chaqirib keladi. Dori ta'sir qilib, ona biroz o'ziga kelgach, o'g'lini yoniga chaqirib:



– Muhammadjon, hamma oila ham bir Vatan, bolam. Endi shu kulbimiz – shu kichik Vatanning egasi sensan. Ukalariningni senga omonat qoldiraman. Qiyalsang ham, ularni birovga berma. Bir-biringdan ayrilmanglar. Bu sening ota uying, aslo

quyidagi fikrlarga singdirilgan: «Har bir millatning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa oilalar intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabatlari mustahkam bo'lsa, o'sha millat ham kuchli va muazzam bo'ladi».

Alloma bu fikrni bir asr avval aytgan bo'lsa-da, hayot uning haqligini barcha zamonlarda isbotlamoqda. Chunki farzandning birinchi maktabi – oila. U dargohda mehrni ham, nafratni ham, kechirishni ham, zo'ravonlikni ham ko'rib ulg'ayadi. Keyin esa shu muhit u bilan jamiyatga birga chiqadi. Shuning uchun ham oila haqida g'amxo'rlik qilish faqat er-xotin munosabatlarida emas, millat kelajagi borasida ham qayg'urishdir.

O'rini kelganda guvohi bo'lgan bir voqeani eslashni joiz bildim. Qishning izg'irinli kuni edi. Hayotdek hovlining bir chekkasida paxsadan urilgan omonatgina kulba. Tancha atrofida to'rt nafar bola mung'ayib o'tirardi. Kattasi mehmonlarni ko'rib, ukalarini panaladi.

sotma. Sen ukalaringga mehr ber, o'g'lim, – degan.

O'sha kecha ona farzandining hali yuk ko'tarishga o'rganmagan yelkasiga vasiyatlarini orqali bir umrlik mas'uliyatni ortgan edi.

Keyinchalik borsam, bola ukalariga qaymoq yedirish, sut berish ilinjida do'stlari bilan molxona qurayotgan ekan. Mahallako'y ham ularga ko'makka oshiqayotganini kuzatganman. Ba'zan millatning buyukligi balandparvoz so'zlarda emas, ukalarining rizqi uchun kurashgan ana shunday sag'ir bir bolaning matonatida yuksalar ekan.

Ko'p o'ylayman: agar onasi o'sha kecha farzandining qalbiga ezgulik urug'ini qadamaganda, agar mahalla uni yolg'iz qoldirganida, bu to'rt bolaning taqdiri qanday kechar edi?

Afsuski, hayotda hamma ham bu o'smirdek mehrli va mas'uliyatli bo'la olmaydi. Yaqinda maktab

lash yo'nalishidagi ishlarga alohida e'tibor berilmoqda. Iqtisodiy choralar bilan bir qatorda, ma'naviy tozarishga qaratilgan ishlar ham izchil olib borilmoqda.

Chunki bir xonadonda o'chgan mehr chirog'i ertaga butun mahalladagi yorug'likka soya solishi mumkin. Aksincha, bir oilada asrab qolingani muhabbat jamiyatni mehr quyoshi bo'lib yoritishi mumkin.

Sharq allomalari bejiz «Tarbiya bir xonadondan boshlanadi, millatgacha yetib boradi», demagan. Biz mukammal jamiyat qurishni istasak, avval oilalarni mukammal qilish haqida qayg'urishimiz kerak.

Bugun oilalarni asrash haqida ko'p gapiryapmiz. Lekin bir haqiqatni unutmaslik kerak: mustahkam oila faqat nasihat bilan barpo bo'lmaydi. So'z mehnat, mas'uliyat va davlat g'amxo'rliqi bilan amaliyotga aylanishi zarur.



Shu ma'noda keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamiri oilani asrashga qaratilgan. Yosh oilalar uchun qurilayotgan uy-joylar, imtiyozli ipoteka imkoniyatlari, xotin-

Ichki ishlar organlari faoliyatida ham oila barqarorligini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Biz ko'pincha huquqbuzarliklarning oqibati bilan emas, uning ildizi bilan to'qnash kelamiz. Aslida uning ildizi oilada tomir tashlagan bo'ladi. Mehr ko'rmagan bola mehr berishni bilmaydi. Notinch oilada katta bo'lgan farzand tinchlikning qadrini kech anglaydi. Hurmatsizlikni odat qilgan inson jamiyat qonun-qoidalariga ham bepisand qaraydi.

Shuning uchun «mahallabay», «xonadonbay» asosida profilaktika inspektorining xonadonlarga kirib qilgan suhbat, mahalla faolining bir oilani yarashtirish uchun sarflagan ikki soati yoki nuroniyning aytgan bir og'iz nasihati ba'zan bir nechta huquqbuzarlikning, hatto og'ir jinoyatning oldini olishi mumkin.

Afsuski, targ'ibot tarzidagi bu mehnatlarning salmog'i har doim ham his qilinavermaydi. Ammo saqlab qolingani har bir oila va undagi yaxshi tarafga o'zgargan muhit bu – kelajakda o'z Vatanga sadoqatli bo'lib ulg'ayadigan farzand demakdir.

Bugun shu yurtning chinakam fuqarosiman, degan inson o'ziga bir savol berishi kerak: Men oilam mustahkamligi uchun nima qilyapman? Chunki Vatan chegaradan emas, ostonadan boshlanadi. Ostonasi mustahkam xonadonning ertasi ham mustahkam bo'ladi. Demak, oila farovonligi – faqat bir xonadonning baxti emas, millat yuksalishining eng ishonchli garovidir.



Qoraqalpog' tili  
tilidagi matn.



Rus tilidagi  
matn.



[www.youtube.com/@Postda\\_IIV](http://www.youtube.com/@Postda_IIV)



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.instagram.com/postda.uz](https://www.instagram.com/postda.uz)

# EL TINCHLIGI – ENG ULUG’ MAQSAD

## HUJJAT ORTIDA – INSON TAQDIRI

Pasport yoki ID-karta olish ko'pchilik uchun oddiy ishdek ko'rinadi. Ammo har bir hujjat ortida insonning shaxsi, huquqi, yashash joyi va hayoti bilan bog'liq muhim masalalar bor. Shu bois Chust tumani IIB xodimlari uchun bu ish shunchaki hujjat rasmiylashtirish emas, avvalo, odamlar bilan ishlash, ularning mushkulini yengil qilish demakdir.

Joriy yil boshidan buyon 18453 nafar fuqaroga ID-karta, 2898 nafariga xorijga chiqish pasporti rasmiylashtirildi, pasportining muddati o'tgan 1163 nafar, hujjatini yo'qotgan 650 nafar fuqaroning murojaatlari bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirildi.

Ro'yxatga olish ishlarida ham salmoqli natijalar bor: 3645 nafar fuqaro doimiy,



– Odamlar turli masala bilan murojaat qiladi. Kimdir hujjatini yo'qotgan bo'ladi, kimdir xorijga chiqish uchun pasport oladi, yana kimdir ro'yxatga turish yoki fuqarolik masalasida yordam so'raydi. Har bir murojaatga e'tibor bilan qarashga harakat qilib, ularni hal qilishga intilamiz, – deydi tuman IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi boshlig'i, kapitan Doston Abdazimov.

471 nafari vaqtincha ro'yxatga olindi. Shuningdek, 750 nafar chet el va MDH fuqarosi vaqtincha ro'yxatdan o'tkazildi.

Bo'linma inspektori, kichik serjant Shahzodbek Abdurahmonov kabi xodimlar uchun hujjat – insonning ehtiyoji. Uning ortida esa ishonch bor. Bu ishonchni oqlash esa har bir xodimdan mas'uliyat, sabr va odamlilikni talab qiladi.

## ODAMLAR XOTIRJAM BO'LSA

Qo'riqlash xizmatining mehnati ko'pincha ko'zga tashlanmaydi, ammo samarasi xonadonlar osoyishtaligida, tadbirkorlar xotirjamligida namoyon bo'ladi.

Tuman IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati bugun 883 ta obyekt, 510 ta maishiy xizmat ko'rsatish obyekti hamda 547 ta xonadonni shartnoma asosida qo'riqlab kelmoqda. Muhim obyektlarda jismoniy va harbiylashtirilgan postlar, qorovullik bo'linmalari hamda tezkor harakatlanuvchi guruhlar xizmat olib bormoqda.

Qo'riqlash xizmatining yana bir muhim yo'nalishi – texnik qo'riqlash. Joriy yilning shu kuniga qadar 122 ta xalq xo'jaligi obyekti va 261 ta yashash xonadoni ikki tomonlama shartnoma asosida texnik qo'riqlovga olindi.

Qo'riqlash qamrovini kengaytirish maqsadda Chust paxta tozalash zavodi, dehqon bozori hamda «Dubay Diamond» MCHJga qarashli dam olish maskani kabi obyektlarni jismoniy va harbiylashtirilgan qo'riqlovga olish ishlari yo'lga qo'yildi. Bu esa hududlardagi xavfsizlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



## OSUDA HAYOT SARI

Yil boshidan buyon tuman 16 ta yo'l-transport hodisasi qayd etildi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga kam. Tan jarohati olganlar soni ham 46 nafardan 36 nafarga tushgani yo'llardagi vaziyatda ijobiy o'zgarish borligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, piyodalar xavfsizligi borasidagi ko'rsatkich e'tiborga molik. Piyodalar ishtirokidagi YTHlar 10 tadan 8 taga kamaygan.

Albatta, buning ortida muntazam nazorat, profilaktika, aholi bilan tushuntirish ishlari va eng muhimi, har bir harakat ishtirokchisining



o'z mas'uliyati bor. Erishilgan ijobiy ko'rsatkichlar yo'llarda tartib va xavfsizlikni

ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlar samara berayotganidan dalolat.

## BOLA E'TIBORSIZ QOLMASIN

Bugun ko'chada nazoratsiz yurgan, maktabda darsdan qolayotgan yoki noto'g'ri yo'lga kirib qolayotgan o'smirlarning ertangi taqdiri butunlay boshqacha bo'lishi mumkin. Shuning uchun tuman IIB JXX HPB VE va YBIG xodimlari uchun asosiy vazifa faqat sodir etilgan huquqbuzarlikka chora ko'rish emas, avvalo, uning oldini olish, bolani to'g'ri yo'lga qaytarishdan iborat.

– Bola bilan ishlaganda uning nima sababdan shunday yo'l tutganiga ko'proq e'tibor berish kerak. Ba'zan uni tinglab, muammosini tushunish ko'proq samara beradi. Chunki har bir bolaning ortida oilasi, tarbiyasi va o'z dunyosi bor, – deydi guruh katta inspektori, kapitan Abdullayev.

Shu maqsadda tumanda profilaktik tadbirlar muntazam o'tkazilmoqda. «Tun» tadbiri

lari davomida tungi vaqtda nazoratsiz va qarovsiz yurgan 35 nafar voyaga yetmagan aniqlanib, ularning ota-onalari bilan profilaktik suhbatlar o'tkazildi. «Tig'» tadbirlarida esa o'tkir tig'li buyumlar va inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa buyumlarni olib yurgan 33 nafar yosh aniqlandi.

Bunday tadbirlarning asosiy maqsadi yoshlarni turli xavf-xatarlardan asrashdir.



## YANGI IMKONIYAT

Tuman IIB Probatsiya guruhi faoliyatida insonni xatosini anglashga, to'g'ri yo'lga qaytishga va jamiyatda o'z o'rnini qayta topishga undash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

– Ayni paytda Probatsiya guruhi hisobidagi har bir fuqaroning taqdiri bilan ishlashda asosiy maqsad – qayta jinoyat sodir etishning oldini olish va insonni to'g'ri hayotga qaytarish, – deydi Probatsiya guruhi katta inspektori Bahrom Inamov. Buning uchun nazoratda-

gi shaxslar bilan yakka tartibda ishlashga e'tibor qaratilmoqda. Yil davomida 15 marotaba mehnat yarmarkasi tashkil etilib, muayyan kasbga ega bo'lmagan 32 nafar shaxs qayta kasbga o'qitildi. Yilning o'tgan davrida 272 nafar shaxs probatsiya hisobiga olingan bo'lsa, 200 nafari hisobdan chiqarildi. Shuningdek, jazoni o'tash tartibiga rioya qilib, o'zini ijobiy tomondan ko'rsatgan 99 nafar shaxs muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilindi.

Kimdir qilgan xatosidan xulosa chiqarib, oilasi bag'riga qaytayapti, kimdir kasb o'rganib, mehnat bilan hayotini o'zgartiryapti. Shu ma'noda, probatsiya faoliyatida nazorat bilan bir qatorda, ishonch, tarbiya va ikkinchi imkoniyat tushunchalari ham muhim o'rin tutadi. Zero, insonning bir marta adashgani uni butun umrga «aybdor» qilib qo'ymasligi kerak.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Namangan viloyati.

**Islahotlar — amalda**

# KAMBAG'ALLIKDAN FAROVONLIK SARI

Rasmiy ma'lumotga ko'ra, yil boshida kambag'allik darajasi 5,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 3-sentabr holatiga ko'ra, 3,9 foizga tushgan. Ehtiyojmand aholi soni 2 million 200 ming nafardan 1,5 million nafarga kamaygan. Ishlar samarali tashkil etilgan 49 ta tuman va 3 ming 429 ta mahalla ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylangan.

## MUHIM BURILISH

Bir qarashda, bu raqamlar jiddiy siljish borligini ko'rsatadi, ammo 3-sentabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida boshqa bir manzara ham ochiqlandi: natija barcha hududlarda bir xil emas.

Masalan, Sharof Rashidov va Qarshi tumanlarining har biriga 2 trillion 300 milliard so'mdan kredit resursi berilgan. Sharof Rashidov tumanida ushbu mablag'lar hisobiga 30 ming nafar aholi kam-

bo'lishi kerakligini belgiladi.

Bu yondashuv kambag'allikka qarshi kurashda muhim burilishni ko'rsatadi, chunki insonning iqtisodiy ahvoli yaxshilanganini o'lchash ancha murakkab. Uning ish joyi qanchalik barqaror? Oila daromadi qay darajada oshdi? Tadbirkorlik loyihasi bir yildan keyin ham faoliyat yuritadimi? Ana shu savollar endi natijaning haqiqiy mezoniga aylanmoqda.

Joylardagi barcha hokim yordamchilari va mahalla bankirlari ham biznes loyihasini shakllantirish, moliyaviy



har doim ham imkoniyat emas. Noto'g'ri tanlangan loyiha, noto'g'ri moliyalashtirish yoki bozori bo'lmagan biznes uchun u yangi qarz yukiga aylanishi mumkin. Shu sababli davlatimiz rahbari aholi va tadbirkorlarga faqat moliyaviy resurs taklif qilish yetarli emasligini ko'rsatdi. Endi yechim bozor, texnologiya, kasb, biznes-reja va sotuv zanjirini bir tizimda bog'lashi kerak.

Xorazm viloyatida o'tkazilgan o'rganish bu yondashuvning nega zarurligini yanada yaqqol ko'rsatadi. Ikki hafta davomida 81 ming nafar kambag'al aholi — 19 ming oilaning sharoiti o'rganilgan. Ular orasida 12 ming nafar ishsiz va 10 ming nafar daromadi past aholi borligi aniqlangan. Ayni paytda viloyat tadbirkorlari qurilish sohasiga 4 ming, xizmatlarsohasiga 3 ming va sanoatga 2,5 ming nafar ishchi izlayotgani ma'lum bo'lgan. Mavjud bo'sh ish o'rinlari bilan kasbga tayyorlash imkoniyatlarini bog'lash orqali 10–15 ming nafar aholi-

lik bo'lsa, boshqasi uchun bola parvarishi, yana biri uchun kasb yetishmasligi yoki biznes yuritish ko'nikmasining zaifligi hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin.

Shuning uchun kambag'allikni qisqartirishda eng muhim vazifa — resursni teng taqsimlash emas, muammoni to'g'ri baholash va har bir oilaga mos yechim topish.

## KAMBAG'ALLIKNI O'LCHASH EMAS, UNING SABABINI ANGLASH KERAK

Kambag'allikka qarshi kurashda yangi bosqichning eng muhim jihati — masalaga faqat daromad nuqtai nazaridan qarashdan voz kechilayotganida, chunki bir oilaning oylik daromadi ma'lum me'yordan pastligi uning ahvoli haqida to'liq tasavvur bermaydi. Shu bois yig'ilishda kambag'allikni baholashning ko'p o'lchovli tizimiga o'tish belgilandi. Endi oilaning daromadi bilan birga surunkali kasallik, nogironlik, oiladagi bolalar soni, chet elda mehnat qilayotgan a'zolar va boshqa ijtimoiy omillar ham hisobga olinadi. Bu shunchaki baholash usulining o'zgarishi emas. Bu — har bir oilaning hayotiga bir xil qolip bilan qaramaslikka urinish.

## RAQAMDAN KEYIN NIMA BO'LADI?

Mamlakat bo'yicha kambag'allik darajasi 3,9 foizga tushgan bo'lsa-da, ayrim toifalarda vaziyat mutlaqo boshqacha. Masalan, uch yoshgacha farzandi bor oilalar orasida kambag'allik darajasi o'rtacha 6,5 foizni tashkil etmoqda. Bu umumiy ko'rsatkich ortida har bir oilaning sharoiti bir xil emasligini ko'rsatadi.

Shu nuqtada davlat rahbarining yig'ilishda belgilagan yondashuvi masalaning maz-

munini ochadi: kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ish endi umumiy ko'rsatkich ortidan quvish emas, har bir oilaning aniq ehtiyoji va imkoniyatidan kelib chiqib tashkil etilishi kerak. Xususan, yosh bolani parvarish qilayotgan ota-onalar uchun uyda yoki mahallaning o'zida ishlash va barqaror daromad topish imkoniyatini yaratish bo'yicha yangi tizim joriy etiladi. Ishlovchi onalarga farzandi bir yoshga to'lgunga qadar Ijtimoiy sug'urta jamg'armasidan nafaqa to'lanishi belgilandi.

Bu qarorlarda bir muhim mantiq bor: insondan ishlash talab qilishdan oldin, uning ishlashiga nima to'sqinlik qilayotganini tushunish kerak.

Yangi tizimning ustuvor vazifasi — mahalladagi har bir imkoniyatni ish o'rni va daromad manbaiga aylantirish. Bu yerda gap yana katta raqamlar haqida emas. Gap mahallaning o'zidagi bo'sh imkoniyatni ko'ra bilish haqida ketmoqda.

Kambag'allik darajasining pasayishi, albatta, muhim ko'rsatkich, ammo masalaning keyingi bosqichi yanada murakkab: statistikadagi qisqarishni inson hayotidagi barqaror o'zgarishga aylantirish. Inson kambag'allikdan bir marta chiqishi mumkin. Asosiy masala — u yerga qayta tushib qolmasligi uchun qanday poydevor yaratilganida. Buni faqat oylik daromad miqdori hal qilmaydi. Barqaror ish, kasb, ijtimoiy himoya, bolalar ta'limi va oilaning kutilmagan zarbalariga chidamliligi — bularning barchasi bir-biri bilan bog'liq. Shu ma'noda kambag'allikka qarshi kurashning haqiqiy natijasi statistikadagi foizlarda emas, odamning ertangi kuniga ishonchida namoyon bo'ladi.

**Musulmon ZIYO**



bag'allikdan chiqarilgan bo'lsa, Qarshi tumanida 13 ming nafar ehtiyojmandning sharoiti yaxshilangan. Aynan shu tafovut masalaning mohiyatini ochib beradi. Demak, natija faqat ajratilgan mablag' hajmiga bog'liq emas. Bir xil resurs ikki hududda turlicha samara berishi mumkin. Shu bois davlat rahbari kredit ajratishning o'zi yakuniy natija sifatida baholanmasligi, har bir loyiha qancha doimiy ish o'rni yaratgani va qancha oilaning barqaror daromad manbaiga ega bo'lgani asosiy mezon

vositani to'g'ri tanlash va fuqaroning g'oyasini tayyor biznesgacha olib borish ko'nikmasiga ega emas. Buning oqibati raqamlarda ham ko'rinadi: so'nggi bir yilda hududlarda tashkil etilgan 86 mingta kichik korxonaning 15 mingtasi faoliyatini to'xtatgan. Bankdan kredit olgan 62 ming nafar fuqaro esa biznesini kutilgan darajada yo'lga qo'ya olmagan sabab kreditlarni qaytarishda qiynalmoqda.

Bu raqamlar kambag'allikni qisqartirish siyosatidagi eng nozik nuqtani ko'rsatadi: kredit

ining daromadini oshirish mumkinligi qayd etilgan. Bu yerda muammo ish yo'qligida emas, ishchi va ish beruvchi o'rtasidagi uzilishda. Demak, ba'zan kambag'allikni qisqartirish uchun yangi kreditdan ko'ra, mavjud ish o'rnini kerakli ko'nikmaga ega inson bilan bog'lash samaraliroq bo'lishi mumkin.

Shu nuqtada asosiy savol ham o'zgaradi. Nega hamma ham birdek boyimayapti? Chunki bir xil dastur, bir xil kredit yoki bir xil imtiyoz har bir oilaga bir xil ta'sir qilmaydi. Bir oila uchun muammo ishsiz-



## IIV ta'lim muassasalarida

BO'LG'USI POSBONLAR  
KAMOL TOPAYOTGAN MASKAN

Ertalabki saflanish. Bir maromdagi qadamlar, tartibli yurishlar, nigohlarida qat'iyat aks etgan yoshlar... Bu yerda intizom shunchaki talab emas, kundalik hayot mezon. Chunki IIV Xorazm akademik litseyida tahsil olayotgan har bir o'quvchining orzusi Vatanga xizmat qilish, xalq osoyishtaligini asrashdek sharaflı maqsadlar bilan chambarchas bog'liq.

TA'LIMDAN —  
XIZMAT SARI

Ikki yillik ta'lim dasturi asosida faoliyat yuritayotgan mazkur ta'lim dargohida bugungi kunda 230 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Ularning 198 nafari o'g'il, 32 nafari qiz bolalar. O'quvchilarning 204 nafari ijtimoiy-gumanitar, 26 nafari esa axborot xavfsizligi yo'nalishida bilim olmoqda.

Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda tarix, huquqshunoslik, chet tili hamda jismoniy tarbiya, axborot xavfsizligi yo'nalishida esa matematika, informatika, chet tili hamda jismoniy tarbiya fanlari chuqurlashtirib o'qitiladi. Zero, kelajak huquq-tartibot posboni uchun bilim bilan bir qatorda, jismoniy chiniqish, huquqiy tafakkur va zamonaviy texnologiyalarni egallash ham muhim.

NATIJA — MEHNATNING  
MEZONI

Ta'lim maskanining salohiyatini, eng avvalo, uning bitiruv-



chilari erishayotgan natijalar ko'rsatadi. O'tgan yilda litseyni tamomlagan 172 nafar o'quvchining 159 nafari, ya'ni 92,4 foizi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilindi. Ularning 27 nafari IIV Akademiyasi, 7 nafari Jamoat xavfsizligi universiteti, 5 nafari Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, shuningdek, FVV Aka-

demiyasi, Bojxona instituti, Rossiya Federatsiyasi IIV oliy ta'lim muassasalari va boshqa oliygohlar talabasi bo'ldi. Bitiruvchilarga IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim bakalavriatiga qabul kvotasining 80 foizi doirasida o'qishga kirish imkoniyati, shuningdek, Jamoat xavfsizligi universiteti va FVV Akademiyasiga kirishda test natijasiga 10 foiz qo'shimcha ball berilishi ham yoshlarning maqsad sari dadil intilishiga xizmat qiladi.

o'quv binosida tozalash hamda joriy ta'mirlash ishlari olib borildi. Ayniqsa, o'quvchilarning ovqatlanish sharoitiga alohida e'tibor qaratildi. Endilikda oshxonada bir vaqtning o'zida 290 nafar o'quvchini ovqatlantirish imkoniyati mavjud.

**3,11 gektar hududni egallagan litseyda o'quv binolari bilan birga, yotoqxona, sport zali, stadion, saf maydoni va keng ko'kalamzor hudud mavjud. Bularning barchasi yoshlarning puxta bilim olishi, chiniqishi va intizomli muhitda kamol topishi uchun xizmat qilmoqda.**

BU YERDA KELAJAK  
SAF TORTADI

Eng muhimi shundaki, litseyda ta'limning mazmuni faqat baho yoki diplom bilan o'lchanmaydi. Bu yerda yosh qalbda Vatanga sadoqat, qonunga hurmat, intizom, jasorat va mas'uliyat kabi fazilatlar shakllantiriladi.

Bugun yangilangan lisey qiyofasiga qarab bir haqiqatni anglash mumkin: bu dargohda oddiy o'quvchilar emas, ertangi kunning munosib kadrlari, yurt osoyishtaligi uchun mas'uliyatni zimmasiga olishga tayyor kelajak posbonlari kamol topmoqda.

## SHAROIT BOR JOYDA...

Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonida yotoqxona, oshxona va



Nilufar JABBOROVA,  
o'z muxbirimiz.  
Xorazm viloyati.



## «Odil sudlov — 2030» strategiyasi

# XALQCHIL SUD TIZIMI: adolat va ishonchning yangi mezonlari

Yangi O'zbekistonda inson qadrini ulug'lash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu jarayonda sud hokimiyati bilan bir qatorda, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning, xususan, ichki ishlar organlarining mas'uliyati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki inson huquqlarini himoya qilish jarayoni ko'p hollarda sudga murojaat qilishdan ancha oldin boshlanadi.



Ichki ishlar organi – sudgacha bo'lgan bosqichda qonuniylik va inson huquqlarining kafolatlaridan biri, sud esa ushbu huquqlarning xolis va adolatli himoya qilinishini ta'minlaydigan mustaqil hokimiyat tarmog'idir. Bu ikki bo'g'in o'rtasidagi uzviylik qanchalik mustahkam bo'lsa, fuqaroning butun huquqiy tizimga bo'lgan ishonchi shunchalik yuqori bo'ladi.

2026-yil 14-avgustda qabul qilingan «Odil sudlov – 2030» strategiyasi sud-huquq islohotlarining keyingi bosqichi uchun aniq maqsad va vazifalarni belgilab berdi. Strategiyada xalqchil va adolatli sud tizimini barpo etish, inson huquqlarini ishonchli himoya qilish, sudlar faoliyatining ochiqqligi, raqamli odil sudlov, sud mustaqilligi va sud qarorlarining sifatini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlar o'z aksini topgan.

**Ushbu hujjatning mazmuni-dan kelib chiqadigan eng muhim xulosa shuki, endi gap faqat «Sud tizimi qanday ishlaydi?» degan savol haqida emas, balki «Sud tizimi va unga-chga bo'lgan huquqni muhofaza qilish jarayoni inson uchun qanday ishlaydi?» degan savol haqida bormoqda.**

Fuqaroning huquqiy himoyasi jinoyat yoki huquqbuzarlik haqidagi murojaat qabul qilingan, shaxsning huquqiy maqomi aniqlangan, ushlar yoki boshqa protsessual chora qo'llangan, dalillar to'plangan va tegishli qaror qabul qilingan birin-

chi bosqichdan boshlanadi. Shuning uchun ichki ishlar organlarida qonuniylik, xolislik, inson huquqlariga hurmat va protsessual tartiblarga qat'iy rioya etilishi sudlovning adolatligi uchun muhim shartdir.

Ayniqsa, shaxsni ushlar, unga huquq va majburiyatlarini tushuntirish, uning himoya huquqini ta'minlash, murojaatlarni xolis tekshirish, dalillarni qonuniy usulda to'plash, protsessual qarorlarni asoslash kabi harakatlar keyinchalik sudda huquqiy baho beriladigan jarayonlarni tashkil etadi. Sudda adolatli qaror qabul qilinishi uchun unga qadar bo'lgan jarayon ham qonuniy va sifatli tashkil etilgan bo'lishi shart.

Shu ma'noda, «xalqchil sud» tushunchasi «xalqchil ichki ishlar organlari» tamoyili bilan hamohang. Ichki ishlar organlari uchun xalqchilik – fuqaroni eshitish, murojaatini sarsongarchiliksiz qabul qilish, unga huquqlarini tushuntirish, qonun doirasida yordam berish va vakolatlardan foydalanishda inson qadrini ustuvor qo'yishdir. Sud uchun esa xalqchilik – huquq buzilgan taqdirda uni xolis va samarali tiklashdir.

Mazkur jarayonda ichki ishlar organlari va sud o'rtasidagi axborot hamda protsessual hamkorlikning sifati ham muhim. Murojaatdan yakuniy sud qarorigacha bo'lgan huquqiy jarayon yagona mantiqiy zanjir sifatida ko'rilishi kerak. Ya'ni fuqaro ichki ishlar organiga murojaat qilganidan keyin materialning qaysi bosqichda ekani, protsessual

maqomi, keyingi harakatlar va sudgacha bo'lgan qarorlar haqida qonun doirasida aniq axborotga ega bo'lishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, raqamlashtirish katta imkoniyat yaratadi. Ichki ishlar organlaridagi elektron tizimlar, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar axborot resurslari va sudning raqamli xizmatlari o'zaro integratsiyalashgan taqdirda, «fuqaroning huquqiy yo'li»ni bir butun jarayon sifatida kuzatish imkoni paydo bo'ladi. Bu qog'ozbozlikni, takroriy murojaatlarni va inson omilini kamaytiradi.

“

Raqamli odil sudlovning haqiqiy maqsadi ham faqat qog'oz hujjatlarni elektron shaklga o'tkazish emas, balki insonning vaqti, mablag'i va ortiqcha harakatlarini tejashdir. Fuqaro ishi sudga oshirilganini, sud majlisi sanasini, qabul qilingan qarorni va shikoyat qilish muddatlarini bilish uchun turli idoralarga qayta-qayta murojaat qilmasligi kerak.

Xalqchil sudning yana bir muhim belgisi — ochiqlik va tushunarlik. Ammo sudning ochiqligiga ishonch sudgacha bo'lgan bosqichdagi munosabatdan ham shakllanadi. Agar fuqaro ichki ishlar organida o'z murojaatiga e'tiborsiz munosabatni ko'rgan, huquqlari tushuntirilmagan yoki qaror sabablari unga ma'lum qilinmagan deb hisoblasa, keyinchalik sudda qabul qilingan qonuniy qaror ham unda to'liq ishonch uyg'otmasligi mumkin.

Tergov sudyalari institutining rivojlanishi ham shu nuqtayi nazardan muhim. Insonning erkinligi, shaxsiy hayoti, uy-joyi va boshqa konstitutsiyaviy huquqlariga

jiddiy aralashuvlar ustidan sud nazoratining kuchayishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik standartlarini yanada oshiradi. Bu ichki ishlar organlari uchun cheklov emas, balki qonuniy harakatlarning huquqiy kafolati va fuqaroning ishonchini mustahkamlash mexanizmidir.

Adolatli sudlovning natijasi faqat sud qarorining o'zi bilan ham cheklanmaydi. Fuqaroning huquqi haqiqatan tiklanganmi, qaror ijro etilganmi, zarar qoplanganmi – ana shu natijalar ham muhim. Demak, ichki ishlar organlarida

Bunday yondashuv sudning raqamli xizmatlari «fuqaro yo'li»ni yangi mazmunda ko'rish imkonini beradi: murojaat – tekshiruv – protsessual qaror – tergov – prokuror nazorati – sud – qaror – ijro. Ushbu bosqichlarning har birida inson huquqlari kafolatlangan bo'lsa, tizimning umumiy natijasi ham adolatli bo'ladi.

**Eng muhimi, fuqaro qaysi idoraga murojaat qilganidan qat'i nazar, o'zini yagona huquqiy tizimning ichida his qilishi kerak. U ichki ishlar organiga murojaat qilganda «mening huquqim eshitiladi», sudga kelganda «mening ishim xolis ko'riladi», qaror qabul qilinganda esa «agar xato bo'lsa, uni qonuniy tartibda qayta ko'rib chiqish imkoniyati bor» degan ishonchga ega bo'lishi lozim.**

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda xalqchil sud tizimini barpo etish – faqat sudlarning ichki faoliyatini isloh qilish emas. Bu insonning huquqiy yo'lini ichki ishlar organlaridan boshlab, sud va ijrogacha bo'lgan barcha bosqichlarda adolat, qonuniylik, ochiqlik va raqamli qulaylik asosida tashkil etish demakdir.

**Qobiljon MIRRAHIMOV,**  
IIV Tashkiliy departamenti  
boshlig'ining birinchi  
o'rinbosari, polkovnik.



# QASAMYODGA SODIQLIK – UNING HAYOT MEZONI

**Tinimsiz izlanish va fidoyilik bir kun kelib, hurmat-e'tirof keltiradi. Shahrisabz tumani IIB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Nu'mon Eshmurodov ana shunday fidoyilardan biridir.**

Pedagoglar Normurod aka va Zarema aya oilasida dunyoga kelgan Nu'mon maktab davridayoq kitob-sevarligi va sinchkovligi bilan ajralib turdi, ham a'lo bilim, ham ibratli tarbiya oldi. Ota-onasining «Gap diplom yoki ma'lumotda emas, zehnda va insoniylikda» degan o'g'itlari uning xotirasiga bir umrga muhurlandi.

Lavhamiz qahramoni xizmat faoliyatini Shahrisabz tumani IIB HPB profilaktika inspektori vazifasida boshladi. Kasbiy, jismoniy va jangovar mashg'ulotlar orqali muntazam ravishda mahoratini oshirib bordi. Ustozi – hozirda iste'fodagi kapitan Azizxon Sa'dullayevdan o'rganganlarini amaliyotda mahorat bilan qo'lladi. Kasbiga bo'lgan cheksiz ishtiyoq va mas'uliyat sabab 2018-yildan e'tiboran Shahrisabz shahar IIB Huquqbuzarliklar pro-

filaktikasi bo'linmasi boshlig'i, so'ng IIB boshlig'ining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari sifatida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatdi.

Xodimning kasbiga sadoqati, ayniqsa, xavf-xatarli, qaltis vaziyatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan ikki yil oldin, 29-mart kuni soat 20:35 larda viloyat IIBning «102» xizmatiga xavotirli xabar tushadi. Fuqarolar U.Avlayev, T.Shoyimov va P.Shovxiev (ism-familiyalar o'zgartirildi) «Oqdaryo» mahallasida joylashgan choyxonada spirtli ichimlik iste'mol qilib, janjallashib qoladi. Janjal davomida T.Shoyimov ulfatiga tan jarohati yetkazib, voqea joyidan yashirinadi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida gumonlanuvchi T.Shoyimov mast holda «Damas» avtomashinasida atrofdagilarning hayotiga jiddiy xavf solib qochib ketayotgan vaqt-

da podpolkovnik Nu'mon Eshmurodov tomonidan to'xtatiladi. Faol qarshilik ko'rsatishiga qaramay, N.Eshmurodov uni zararsizlantiradi va tezkor guruh yetib kelgunga qadar ushlab turadi.

Hozirgi paytda Shahrisabz tumani IIB boshlig'ining o'rinbosari – jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i lavozimida faoliyat yuritayotgan podpolkovnik Nu'mon Eshmurodov har bir topshiriqqa yuqori professionallik bilan yondashmoqda. Joriy yil davomida tuman hududida profilaktik hisobda turgan hamda ilgari sudlangan shaxslar bilan manzilli ishlar to'g'ri tashkil etilgani bois, og'ir va o'rtacha og'ir turdagi jinoyatlar, firibgarlik hamda odam o'limi bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari keskin kamaydi.

– Xodimlarimiz xizmatda ham, xizmatdan tashqari

vaqtda ham bir-birlarini ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashadi, – deydi tuman IIB boshlig'ining MMI bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Abdimannob Allayorov. – Bunday olijanob xislatlar Nu'mon Eshmurodovda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bo'limdagi biror xodimning qandaydir muammosi bo'lsa, Nu'mon aka darhol rahbariyatni ogohlantirib, masalaning yechimini topishga bosh-qosh bo'ladi.

El osoyishtaligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikning oldini olish borasidagi fidokorona xizmatlar hamisha davlatimiz e'tiborida. Mustaqilligimizning 35 yiligi bayrami munosabati bilan Prezident farmoniga ko'ra, podpolkovnik Nu'mon Eshmurodov

«Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan taqdirlandi.

Ichki ishlar organlarida Nu'mon Eshmurodov singari o'z kasbiga va qasamyodiga sodiq xodimlar bor ekan, yurtimizda tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lib, fuqarolarimizning erkin mehnat qilishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

**Sodiq RAHIMOV,**  
**o'z muxbirimiz.**

*Qashqadaryo viloyati.*



Alisher Xolmatov dastlab Toshkent pedagogika institutida jismoniy tarbiya yo'nalishida tahsil oldi. 2001-yilda Andijon shahar IIBning 1-militsiya bo'linmasiga profilaktika inspektori bo'lib ishga kirgach, kasbiy mahoratini mustahkamlash zarurligini darhol angladi. Chunki yurt tinchligini saqlash nafaqat iroda va jismoniy tayyorgarlikni, balki teran bilim va huquqiy savodxonlikni ham talab etadi. Shu bois IIV Akademiyasida tahsil olib, 2008-yilda uni muvaffaqiyatli tamomladi va o'z sohasining bilimdon mutaxassisi sifatida faoliyatini davom ettirdi.

Har kuni, har soatda tezkorlik va xavf-xatar bilan yuzma-yuz kelish uni chiniqtirib, fidoyi xodimga aylantirdi. Zero, tezkor xodim uchun har bir yangi kun kutilmagan vaziyatlar bilan yuzlashish demakdir. Jabrdiydaning dardli nigohi, jinoyatchining makr-hiylasi, tungi tashvishlar orasida u bir haqiqatni chuqur angladi: zarurat tug'lsa, o'z hayotini garovga qo'yib bo'lsa-da, el osoyishtaligini himoya qilish kerak. Xavfni anglagan holda ham oldinga intilish – mardlik va burchga cheksiz sadoqatning amaldagi ifodasi edi.

– Albatta, bunday murakkab va mas'uliyatli yo'lda inson mahorat maydonida yolg'iz qolmaydi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Mening ham har bir muvaffaqiyatim ortida ustozlarimning bebaho o'g'itlari turganini minnatdorlik bilan yodga olaman. Podpolkovniklar Nazirjon O'rinboyev, Ravshanbek Valiyev va Sodiqjon

## SO'NMAS E'TIQOD

Insonning eng katta baxti – bolalikda ko'ngilga ekilgan orzu nihollarining yillar o'tib meva berishidir. Beg'ubor bolalik chog'ida ko'pchilik posbonlarga havas qiladi. Ammo Alisherning orzulari shunchaki havas emas edi. U tengdoshlari kabi faqat egniga forma kiyishni emas, balki uning ortida turgan yuksak mas'uliyatni his etishni va qasamyodiga umrining oxirigacha sodiq qolishni ko'ngliga tukkandi. Yillar o'tib, bu orzu mustahkam e'tiqodga, e'tiqod esa fidoyilik va jasorat bilan yo'g'rilgan umr yo'lga aylandi.

Nishonov nafaqat soha sirlarini o'rgatishdi, balki o'z fidoyiligi va mardligi bilan haqiqiy ibrat maktabini ko'rsatishdi. Inson hayotida yaxshi ustoz ko'rgan bo'lsa, har qanday og'ir vaziyatda ham to'g'ri qaror qabul qilishga, har bir harakatida adolat va sergaklikni bosh mezon deb bilishga o'rganar ekan. Nimaiki yutuqqa erishayotgan bo'lsam, ularning barchasida ustozlarimning hissasi bor.

Xizmat yo'lida insonga eng katta kuch beradigan va suyanch bo'ladigan maskan uning oilasidir. Alisher Xolmatov nafaqat eliga sodiq posbon, balki oilasida ham suyukli va baxtiyor ota. Uning uch nafar farzandi bugun voyaga yetib, oliy ma'lumotli mutaxassislar sifatida o'zlari tanlagan sohalarda el-yurt xizmatiga kamarbasta. Otaning mehnatkashligi, halolligi va kasbiga bo'lgan hurmati farzandlar tarbiyasida eng katta ko'zgu va ibrat bo'lgani, shubhasiz.

El uchun qilingan xizmat, tulari bedor o'tkazilgan suronli yillar hech qachon e'tiborsiz qolmaydi. Yaqinda davlatimiz rahbarining farmoniga binoan, Andijon shahar IIB bo'lim boshlig'i, podpolkovnik Alisher Xolmatovning «Shuhrat» medali bilan taqdirlangani uning ko'p yillik samarali va halol xizmatiga berilgan eng munosib va adolatli baho bo'ldi.

Ha, osoyishtalik posboni bo'lish shunchaki kasb emas, bu qismat va yurakdagi e'tiqoddur. El osoyishtaligi va fuqarolar xotirjamligini o'z hayoti hamda oromidan ustun qo'yadigan, qasamyodiga sodiq Alisher Xolmatov kabi mard va fidoyi o'g'lonlar bor ekan, yurtimiz tinchligi, xalqimizning ertangi kunga bo'lgan ishonchi hamisha mustahkam himoyadadir.

**Saminjon HUSANZODA,**  
**o'z muxbirimiz.**

*Andijon viloyati.*



E'tirof

# ONIY LAHZADAGI JASORAT

**Oniy lahzadagi jasorat, kutilmagan hushyorlik va to'g'ri qaror bir insonning taqdirini o'zgartirishi mumkin. Yaqinda Forish tumanida sodir bo'lgan voqea bu haqiqatni yana bir bor isbotladi.**

10-sentabr kuni soat taxminan 15:00 lar atrofi-da 33-maktabning 3-sinf o'quvchisi Azizbek Ergashev tuman markazining Amir Temur ko'chasidagi piyodalar o'tish yo'lagidan o'tayotgan edi. Shu payt qarama-qarshi tomondan kelayotgan 1-sonli maktabning 11-sinf o'quvchisi Shahzod O'tkirov qora rangli «Gentra» rusumli mashinaning yuqori tezlikda yaqinlashayotganini ko'rdi. Shahzod ikkilanib turmadi. U bolakayning qo'lidan mahkam tutib, uni yo'lning xavfsiz qismiga olib chiqdi. Bolakay nima bo'lganini anglab ham ulgurmadi. Videotasvirlar ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgach, jamoatchilik yosh bolani falokatdan qutqarib qolgan o'smirni olqishlay boshladi.

Ko'pincha inson xavfli vaziyatga duch kelganda bir zum sarosimaga tushib

qolishi mumkin. Shu bois Shahzodning harakatidagi eng e'tiborli jihat – uning tezkor qaror qabul qilgani bo'ldi. Aks holda, bunday ikkilanish juda qimmatga tushishi mumkin edi.

Shahzod O'tkirovning jasorati munosib e'tirof etildi. Viloyat IIB JXX JTSS YHXB boshlig'i hamda Forish tumani hokimi u tahsil olayotgan maktabga tashrif buyurib, unga minnatdorlik bildirdi, munosib rag'batlantirdi. Bolakayning onasi ham ko'zda yosh bilan uni duo qildi.

Albatta, bu voqea har birimiz uchun saboq bo'lishi barobarida, qator savollarni tug'diradi. Farzandimiz maktabga ketayotganda uning xavfsizligi haqida o'ylayapmizmi? Haydovchi sifatida maktablar, bog'chalar va piyodalar o'tish yo'laklari yaqinida tezlikni pasaytirayapmizmi? Piyo-



dalar o'tish yo'lagida inson borligini ko'rsak, unga yo'l beryapmizmi? Farzandlarimizga yo'lni qayerdan va qanday kesib o'tishni yetarlicha tushuntirayapmizmi?

Mazkur voqea bo'yicha yo'lda tezlikni oshirgan avtomobil haydovchisining shaxsi aniqlanib, unga nisbatan ma'muriy bayonno-ma rasmiylashtirildi. Avtomobil jarima maydonchasi-

ga joylashtirildi. Haydovchi esa tez harakatlanganiga sabab sifatida ukasining qo'li sinib qolgani va uni zudlik bilan shifoxonaga olib ketayotganini bildirgan. Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi: ukang – jigaring ekan, yo'ldagi boshqa bolalar ham kimningdir jigarbandi emasmi?!

Abatta, Forishdagi voqeaning ijobiy yakunlangani

quvonarli. Ammo uning eng katta ahamiyati – bu holat bizga nimanidir yana bir bor eslatganida: yo'l xavfsizligi faqat YHXB xodimlarining yoki haydovchilarning vazifasi emas, balki barchamizning umumiy mas'uliyatimizdir.

**Muqaddas SAPAROVA,**  
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

## Ikkinchi iste'dod

# QALBIDA SAN'AT, BILAGIDA KUCH



**Ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xodimlar orasida nafaqat o'z burchiga sadoqatli, balki turli noyob iste'dod sohiblari ham talaygina. To'rtko'l tumani IIB HPB Voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, leytenant Bayrambay Xojabayev ana shunday xodimlardan biri.**

Nukus shahrida tug'ilgan Bayrambay bolalikdan san'at va adabiyotga katta qiziqish bilan ulg'aydi. Bu bejiz emas. Boisi, uning otasi Baxitbay aka nafaqat ichki ishlar organida fidoyilik bilan xizmat qilayotgan xodim, balki vazirlik ansamblining faol a'zosi ham edi. Oiladagi ijodiy muhit Bayrambayning iste'dodini charxladi.

– Maktabdagi tadbirlarda menga aksariyat hollarda ichki ishlar organi xodimi obrazini yaratish topshirilardi, – deydi B. Xojabayev. – Ustozlarim fe'l-atvorimda shu sohaga mos qat'iy xarakter borligini aytishardi. Otamning hayot yo'li, vazirlik tadbirlarida ijro etiladigan tomoshalar menda katta

taassurot qoldirgan. Bu muhit ota kasbini tanlashimga asosiy turtki bo'ldi.

Bayrambay Toshkent davlat agrar universitetining Nukus filialida tahsil olayotgan kezlarda «Quvnoqlar va zukkolar» musobaqasida oliygohning «Agrolayf» jamoasi tarkibida muvaffaqiyatli qatnashdi. O'qishni tamomlagach, ikki yil fuqarolik sohasida ishlab ko'rdi, ammo qalbidagi orzu ustun kelib, 2023-yildan e'tiboran ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini boshladi. Bugungi kunda u o'smirlarning huquqiy ongini oshirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda yoshlarga yaqin ko'makdosh bo'lmoqda.

Maqola qahramonining yana bir noyob qirrasini – milliy soz va sportga bo'lgan mehdirdir.

– Bayram tadbirlarida chanqovuzning sehrli sadosi meni butunlay maftun etgandi, – deya eslaydi leytenant Bayrambay Xojabayev. – Shu bois ustozim Baxtigul Yesemuratovadan ushbu sozni chalish sirlarini o'rgandim. Chanqovuz – turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan, tabiat va inson uyg'unligini aks ettiruvchi noyob musiqasi asbobi. Ohanglarida shamol shiviri, bepoyon dasht nafasini his qilish mumkin. Chanqovuz chalish menga ruhiy hordiq beradi.

Bayrambay sport maydonlarida ham muvaffaqiyat qozonib kelmoqda. O'n yildan ortiq muddat erkin kurash bilan shug'ullanib, O'zbekiston chempionatlarida sovrindor bo'lgan. Jismoniy chiniqish va iroda manbayi bo'lgan bu sport turi kundalik xizmatida ham qo'l kelmoqda. Bundan tashqari, u vazirlik miqyosidagi gir ko'ta-

rish musobaqalarida ham muntazam ravishda faxrli o'rinlarni egallab keladi.

Bayrambay Xojabayev oilada ham g'amxo'r ota va ibratli turmush o'rtoqdir. Rafiqasi Iroda Allabergenova bilan farzandi Shaxsultanni tarbiyalamoqda. Ular Ichki ishlar vazirligi tomonidan o'tkazilgan «Namunali oila» ko'rik-tanlovining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida faxrli 2-o'rinni egalladi.

Inson qalbidan ezgulik, kasbiga sadoqat va san'atga muhabbat uyg'unlashsa, u har qanday sohada zafar quchadi. Chanqovuzning sehrli navosidan kuch oladigan, sportda matonat ko'rsatib, el tinchligini qo'riqlayotgan Bayrambay Xojabayevdek xodimlar ichki ishlar organlarida nafaqat huquq-tartibot, balki yuksak ma'naviyat va madaniyat ham mustahkam ustun ekanini isbotlamoqda.

**Azamat PIRNIYAZOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

# SALOMNING SALMOG'I

**Ba'zan insonning butun hayotini uzun-uzun tarjima-yi hollar ham to'liq ochib bera olmaydi. Tug'ilgan joyi, tahsil olgan oliygohi, egallagan lavozimlari, unvon-u xizmat yillari – bularning bari uning hayotidagi tashqi manzara, xolos. Insonning aslida kim ekanini bilish uchun bundan-da muhimroq mezonlar bor. U oddiy odamlar bilan qanday gaplashgan? Qo'l ostidagi xodimga qanday munosabatda bo'lgan? Kimdir yordam so'rab kelganida uni eshitganmi? Mansab pillapoyalaridan ko'tarilgani sari odamlar bilan orasi uzoqlashganmi yoki...?**

Sobir Salayev haqida so'z ketganda, xayolimda aynan ana shu savollar gavdalandi. Zotan, u haqda ko'p va xo'b yozilgan. Ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyati, matbuot sohasidagi xizmatlari haqida alohida maqolalar chop etilgan. Ammo uning hayotida shunday voqea borki, u bir qarashda oddiy, ammo juda teran ma'noga ega.

1977-yil. O'sha paytda Sobir Salayev Ichki ishlar vaziri o'rinbosari lavozimida xizmat qilardi. Xorazmdan to'yga taklif qilish uchun kelgan qarindoshi uni vazirlik binosi oldida kutib turadi. Sobir Baxtiyrovich vazir Haydar Yahyoyevni kuza-tib qo'ygach, ular vazirlik binosiga kirishadi. Nazorat o'tish joyidan o'tarkan Sobir Salayev militsioner bilan qo'l berib salomlashadi. Shu payt yonidagi mas'ul xodim hayron bo'lib:

– Siz vazir o'rinbosari bo'lsangiz, oddiy militsioner bilan salomlashib o'tishingiz shartmi? – deydi.

Sobir Salayev esa kulib:

– Pensiyaga ketsak, ular bizni binoga kiritmaydi-da, – deya javob qaytaradi.

Voqea shu. Bir necha soniyalik suhbat. Ammo ba'zan insonning butun fe'l-atvorini ochib berish uchun bir necha soniya kifoya qiladi. Sobir Salayevning hazilomuz javobi ortida katta haqiqat yashiringan edi. Lavozim – vaqtinchalik, odamiylik esa – doimiy. Bugun sen rahbarsan, oldingda boshqalar tik

turishi, senga hurmat-ehtirom ko'rsatishi mumkin. Ammo vaqti-soati bilan bu lavozimni yangi rahbar egallaydi, unvonlar ham bir kun tarixga aylanadi. Odam esa odamligicha qoladi. Sobir Baxtiyrovich buni yaxshi anglagan. Chunki insonning buyukligi ko'pincha oddiy haqiqatlarda, o'zidan past lavozimdagi odamni qanday ko'rishida bilinadi.

Buyuk qalb sohibining hayot yo'li boshidanoq tekis va ravon bo'lmagan. U juda yoshligida otasidan ayrilgan. Xiva yaqinidagi qishloqda ulg'aygan bola uchun hayotning dastlabki saboqlari oson kechmagan. Yetimlik, ro'zg'or tashvishi, urush yillari – bularning bari uning bolaligi va yoshlik davriga to'g'ri keldi. Ammo hayotning beshafqat zarbalari uning qalbini qattiqlashtirmadi. Aksincha, u odamga mehr ko'rsatish va yordam berishning, bir og'iz yaxshi gapning qadrini erta angladi.

Balki, keyinchalik uning odamlar dardiga befarq bo'lmaganida, yoshlarni qo'llab-quvvatlaganida ana shu bolalik saboqlarining izi bordir.

Insonning keyingi hayoti ko'pincha bolaligida olgan saboqlarining mantiqiy davomi bo'ladi. Bolaligi unga bir narsani o'rgatdi: odamga odam kerak. Yetim bola boshqalarning ko'magini ko'rdi va shu sababli katta bo'lgach, o'zi ham boshqalarga suyanch bo'lishni o'rgandi.

Sobir aka 1942-yilning yanvarida frontga jo'nab ketadi. Piyoda qo'shinlari tarkibidagi artilleriya bo'linmasida oldingi safda turdi. Tabiatan tirishqoq, harakatchan va intiluvchan bo'lgani bo'lsmi, jamoat ishlarida ham faol qatnashdi: suhbatlar o'tkazdi, jangovar varaqalar chiqarishda ishtirok etdi, jangchilarga gazeta o'qib berdi, yig'ilishlarni tashkil qilishda ko'maklashdi. Bular oddiy vazifalardek ko'rinishi mumkin, lekin bu ishlar uning kelajakdagi yo'lini tayyorlayotgan edi. U odamlar bilan ishlashni, ularni tinglashni va ruhiyatiga yo'l topishni o'rgandi. Keyinchalik ichki ishlar organlari tizimida ham, matbuotda ham aynan shu mahorat unga juda asqatdi.

Sobir Salayev hayotining yana bir muhim qirrasini – matbuot. 1956-yildan tahririyatda ishlay boshlagani uning hayotida yangi davrni boshlab berdi. Ichki ishlar organlari tizimida faoliyat yuritayotgan insonning qo'lga qalam olishi tasodif emasdi. Chunki u odamlar bilan ishlashni allaqachon bilar, endi esa ularning hayoti va xizmatini so'z orqali ifodalashi kerak edi. Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetini sirdan tamomlab, jurnalistlik mahoratini oshirdi, mohir muharrir sifatida shakllandi. Gazetaning mazmun-mundarijasini boyitishga, uning hayot bilan hamnafas bo'lishiga harakat qildi. Ayniqsa, «Postda» gazetasi uning faoliyatida alohida o'rin egalladi. Nashr shunchaki gazeta emas, ichki ishlar organlari xodimlarining hayoti, xizmatdagi muammolari, tajribasi va ruhiyati aks etadigan muhim minbarga aylandi. Sobir Salayev esa bu minbarning mas'uliyatini juda yaxshi his qilardi.

Uning muharrirlik davrida gazeta gurkiradi, gullab-yashnadi: aholi uchun 400 ming nusxada yakshanba soni chiqarila boshladi.



Boshqa ko'plab idoraviy nashrlar qatori, «Postda» gazetasi yopilganidan so'ng iste'foga chiqqunga qadar Sobir Salayev yetti yil IIV kadrlar bilan ishlash sohasida vazir o'rinbosarigacha bo'lgan mas'uliyatli vazifalarda xizmat qildi.

Sobir Salayevni xotirlaganlar, avvalo, insoniy fazilatlarini tilga olishadi. Birov undan olgan qimmatli maslahatini, yana biri uning qo'llab-quvvatlaganini, kimdir esa o'z vaqtida aytilgan bir og'iz samimiy gapini eslaydi. Hayotda shunday insonlar bo'ladiki, ular sizga katta yordam berganini o'zlari ham eslamasligi mumkin, biroq siz buni hech qachon unutmaysiz.

Insonlar hayotdan ketadi, ammo ularning qilgan yaxshiliklari mangu yashayveradi. U bir xodimning xotirasida, yana bir shogirdning hayotida, oilaning yodnomasida, gazetaning eski sahifalarida hamda birgina voqeaning guvohi bo'lgan odamning hikoyasida muhrlanib qoladi. Zero, insonning haqiqiy martabasi – uning odamlar qalbidagi qoldirgan o'rnidir.

**Nilufar JABBOROVA,**  
o'z muxbirimiz.

## Xabar

## FAOL FAXRIYLAR BELLASHDI



**Farg'onada viloyat ichki ishlar organlari faxriylari o'rtasida «Eng faol faxriy xodim» ko'rik-tanlovining hududiy saralash bosqichi o'tkazildi.**

Mazkur tanlovda ishtirokchilarning jamoatchilik hayotidagi faolligi, ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga daxldorligi, yosh xodimlarni tarbiyalash va

ularga kasbiy tajriba o'rgatishdagi o'rni, shuningdek, mahallalarda tinchlik va osoyishtalik muhitini yanada mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlariga alohida e'tibor qaratildi. Belgilangan shartlar asosida ularning ijodiy salohiyatlari sinovdan o'tkazildi.

Tanlov yakuniga ko'ra, Farg'ona viloyati IIB YHXB faxriysi, iste'fodagi kapitan

Abdumannon Niyozov faxrli birinchi o'rinni egallab, respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Oltiariq tumani IIB faxriysi, iste'fodagi mayor Isoqjon Mirzajalilov ikkinchi, Qo'shtepa tumani IIB faxriysi, iste'fodagi katta leytenant Asqarali Yusupov esa uchinchi o'rinni band etdi.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

По маршрутам духовности

# ПАМЯТЬ, КОТОРАЯ ВОСПИТЫВАЕТ

Музей, организованный в доме полковника в отставке Кудрата Хатамова, стал точкой притяжения для молодежи. Ветеран, долгие годы отдавший службе в подразделениях ОВД Сырдарьинской области, сегодня на заслуженном отдыхе.

В первые годы независимости страны Кудрат Хатамов возглавлял ОВД Гулистанского района. В тот переломный период он вместе с коллегами, проявляя мужество и решительность, стоял на защите общественного порядка, обеспечивал покой и безопасность соотечественников.

В экспозиции представлены уникальные документы, награды, форма сотрудника тех лет, архивные фотографии, рассказывающие о непростых буднях стражей правопорядка.

Дом-музей полковника в отставке Эргаша Абдукадилова, организованный в Сырдарьинском районе, также впечатляет богатством экспонатов.

На архивных фотографиях отражен служебный путь ветерана.

**Когда жизнь посвящена служению Родине, уважение людей становится лучшей наградой, а пройденный путь — ориентиром для подрастающего поколения. Сберечь уникальный опыт ветеранов и передать его молодежи помогают музеи, создаваемые в системе органов внутренних дел.**



Особый интерес вызывают раритетные пленочные фотоаппараты, которыми в прошлом пользовались следователи и оперативники, оригинальные инструменты экспертов-криминалистов, специальная литература.

— Здесь история оживает, и это помогает нам лучше осознать выбор профессии, — говорит

учащийся Сырдарьинского академического лицея МВД Улугбек Мирзабеков. — Каждый визит в дом-музей Эргаша ота открывает новые грани деятельности органов внутренних дел. Для нас, будущих сотрудников, это лучший источник знаний о профессии.

Соб. корр.

Сырдарьинская область.

\*\*\*

В рамках духовно-просветительской работы учащиеся Сырдарьинского академического лицея МВД Узбекистана совершили познавательную экскурсию в Термезский археологический музей.

Ребята ознакомились с древними артефактами, барельефами, скульптурами, макетами городищ. Особый интерес у них вызвали экспозиции, посвященные эпохе Кушанского царства, где процветали торговля, ремесла, культура. Подобные экскурсии расширяют кругозор, развивают искренний интерес к истокам государственности.

Соб. корр.

Сырдарьинская область.

Человек и его дело

# ЧТОБЫ НА ДОРОГАХ БЫЛО СПОКОЙНЕЕ

**В шесть утра — развод. В семь — уже на перекрестке. Город постепенно набирает темп, увеличивается поток автомобилей и пешеходов, а вместе с ним возрастает ответственность тех, кто следит за порядком на дороге.**

Старший сержант Бахтиёр Алимов, инспектор специального батальона четвертой мобильной группы ДПС, к этому ритму привык давно. В органах внутренних дел он служит с 2004 года, а последние десять лет — в ДПС. Его рабочее место — один из достаточно сложных перекрестков столицы, где пересекаются улицы Ислама Каримова и Шарафа Рашидова.

— Здесь каждый день по-разному, — говорит Бахтиёр. — Нужно постоянно следить за движением, смотреть, где образуется затор, где может возникнуть опасная ситуация. Важно вовремя среагировать.

А ситуаций за день бывает немало. Кто-то торопится и переходит дорогу на красный свет. Кто-то пытается проскочить перекресток на запрещающий сигнал. Возникают аварии и другие дорожные

происшествия. Отдельная проблема — водители скутеров и мотоциклов. Некоторые из них не имеют водительских прав, другие нарушают Правила дорожного движения.

Но служба — это не только регулирование движения. За форменной одеждой инспектора — человек, который готов прийти на помощь.

Однажды прохожие сообщили ему, что неподалеку мужчине стало плохо. Бахтиёр сразу направился туда, вызвал бригаду «скорой помощи»...

В другой раз помощь потребовалась водителю прямо на перекрестке. В жаркую погоду мужчине за рулем внезапно стало плохо с сердцем. Инспектор вызвал медиков и оказал первую помощь до их приезда.

К Б. Алимову нередко обращаются и водители. Особенно в часы пик. Где объехать пробку? Как про-



ехать к нужному адресу? Какая дорога сейчас свободнее?

Казалось бы, сегодня для этого есть навигаторы и электронные карты. Но в реальных дорожных условиях человек, который находится непосредственно на месте, иногда знает гораздо больше любой программы.

За такую помощь сотрудники нередко слышат слова благодарности. Помогают и пожилым людям, и женщинам-водителям,

оказавшимся в сложной ситуации. А если по дороге движется машина «скорой помощи» или пожарная техника, задача инспектора — максимально быстро обеспечить им свободный проезд.

Для старшего сержанта Алимова это уже стало привычной частью службы: заметить, оценить, принять решение и сделать все, чтобы движение продолжалось безопасно.

В органы внутренних дел он пришел не случайно.

Примером для него стал дядя, Алишер Усманов, который много лет служил участковым инспектором и сегодня находится на заслуженном отдыхе.

С тех пор прошло более двух десятилетий. За это время многое изменилось — и город, и дороги, и сама служба. Но осталось главное — отношение к профессии.

Каждое утро Б. Алимов снова выходит на пост. Впереди — напряженный перекресток, плотный поток машин, торопящиеся пешеходы, водители, которым нужно подсказать дорогу, и ситуации, которые невозможно предугадать заранее. Он просто делает свою работу. Внимательно, спокойно и с полной отдачей.

Чтобы не было аварий. Чтобы не образовывались заторы. Чтобы «скорая помощь» могла проехать без задержки. Чтобы пожилой человек безопасно перешел дорогу.

И, в конечном счете, чтобы на его участке дороги людям было спокойнее и безопаснее.

Юлия МУСТАФАЕВА,  
соб. корр.



## ► Service to the Motherland

FAITH IN THE HEART, PRIDE  
IN THE RANKS

Protecting the peace and tranquility of the country and its people is a sacred duty. Cadets studying at the Academy of the Ministry of Internal Affairs, having undergone physical-combat and military training, took their oath and embarked on the honorable path of service.

At the ceremonial event, Minister of Internal Affairs Lieutenant General Aziz Tashpulatov emphasized that the trust placed in these young people would certainly yield results in the future. He called on them to thoroughly master the field of law enforcement and public safety.

Today, special attention is being paid at the Academy of the Ministry of Internal Affairs to improving the quality of personnel training and developing a digital educational environment. The Academy's infrastructure is being modernized, with new innovative buildings and facilities being constructed. The educational process will be organized based on the credit-module system. From their first year, cadets will be assigned to specialized services and territorial divisions.

The ceremony also recognized talented cadets. Rukhshona Murodillayeva, Akobir Fayzulloyev, Se-

vinch Ochilova and Elbek Azimov received certificates of honor as "Recipients of the Minister of Internal Affairs scholarship." Abubakir Isokhonov and Diyorbek Kamoldinov were awarded certificates of honor as "Recipients of the Jaloliddin Manguberdi scholarship of the Ministry of Internal Affairs." Sarvinov Umarova was recognized as a recipient of the "Supreme Commander-in-Chief" state scholarship.

The young people who took the oath pledged to serve the Motherland, the people and the President with loyalty.

## ► Women in uniform

## STARS OF TRUST

Today, women play an invaluable role in ensuring peace, public safety and tranquility in our country. One of these dedicated professionals is Dilnoza Redjabova, lead specialist of the Information service of the Road traffic safety service under the Department of public safety of the Ministry of Internal Affairs.

Having served in the internal affairs bodies for nearly twenty years, Dilnoza Redjabova has devoted her professional activity to promoting road safety and communicating traffic rules to the public and young people in a simple and understandable manner. On her initiative, children at preschool education organization №441 in the Almazar district of Tashkent are being taught how to properly follow road signs and traffic lights and use pedestrian crossings safely.

Her mentoring work has also produced notable results at the international level. Representatives of Uzbekistan won second place at competitions held in Kyrgyzstan in 2024 and Tajikistan in 2025, and took first place at the International young road traffic inspectors competition held in Kazakhstan in August 2026.

In recognition of her many years of dedicated and effective service, Dilnoza Redjabova was awarded the special rank of Colonel. She is the first woman in the Road traffic safety service to attain this rank.



## ► In step with the people

A DEDICATED  
GUARDIAN OF "ELOBOD"

In the "Elobod" mahalla of Qumgurgon district, district DIA prevention inspector, senior lieutenant Hakimali Gulboyev, is making a valuable contribution to ensuring public peace, strengthening family harmony and preventing offenses at an early stage.

He began his service in 2022 as a prevention inspector at the Denov district DIA, gaining valuable experience in the "Qorakul," "Chaganiyon" and "Bahoriston" mahallas. Today, the fact that not a single crime has been recorded this year in "Elobod," home to 5,190 residents, demonstrates the effectiveness of preventive measures.

Working closely with mahalla activists, the inspector studies the concerns of families and residents. As a result, conflicts in five families on the verge of divorce have been resolved. Twenty surveillance cameras installed in crowded public areas have also been integrated into his office, enabling continuous monitoring of the situation.

Regular preventive measures are being carried out with 34 families classified in the "red" category. With the inspector's assistance, 16 unemployed citizens have found jobs. The drinking-water problem in the mahalla has been resolved, 3.5 kilometers of streets have been paved, and 3 kilometers of roads



have been covered with crushed stone and gravel.

Hakimali Gulboyev is currently studying through the part-time program at the Academy of the Ministry of Internal Affairs.

## ► Dedication to the profession

LOYALTY TO THE OATH –  
HIS LIFE PRINCIPLE

Persistent pursuit of knowledge and dedication eventually earn a person respect and recognition. Lieutenant colonel Numon Eshmurodov, deputy head of the Shahrizabz district DIA, is one such dedicated professional.

Raised in the family of educators Normurod aka and Zarema aya, Numon stood out from an early age for his love of books and inquisitive nature. He made his parents' advice – "It is not about a diploma or education, but about intellect and humanity" – a guiding principle of his life.

He began his career as a prevention inspector at the Shahrizabz district DIA, applying in practice what he learned from his mentor, retired captain Azizkhon Sadullayev. From 2018, he served

as head of the Crime prevention division of the Shahrizabz city DIA, and later as deputy head of the Department for youth affairs.

On March 29, during an incident in the "Oqdaryo" mahalla, T. Shoyimov attempted to flee in a "Damas" vehicle but was stopped and subdued by lieutenant colonel N. Eshmurodov.

Today, he serves as head of the Public safety service, organizing targeted work with persons under preventive supervision and those previously convicted. As a result, serious crimes, fraud and road traffic accidents involving fatalities have decreased.

On the occasion of the 35th anniversary of Independence, he was awarded the "for Faithful service" medal.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.



## Soha fidoyilari

# «ELOBOD»NING JONKUYAR O'G'LONI

**Qumqo'rg'on tumanidagi «Elobod» mahallasida aholi osoyishtaligini ta'minlash, oilalar totuvligini mustahkamlash, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda tuman IIB JXX HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Hakimali Gulboyevning munosib hissasi bor.**

Hakimali Gulboyev xizmat faoliyatini 2022-yilda Denov tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori lavozimida boshlagan. Faoliyati davomida mazkur tumandagi «Qorako'l», «Chag'aniyon» va «Bahoriston» mahallalarida zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajardi. Ushbu tajriba unga mahalla hayotini chuqur o'rganish, odamlar bilan til topishish, har bir xonadondagi muammoni o'z vaqtida aniqlash va yechimini topishda katta maktab bo'ldi.

5190 nafar aholi istiqomat qiladigan «Elobod» mahallasida joriy yilda birorta jinoyat sodir etilmagani olib borilayotgan profilaktika ishlarining samaradorligidan dalolat beradi. Albatta, bu natija birgina xodimning emas, balki mahalla faollari va jamoatchilik vakillarining hamjihatlikdagi mehnati mahsulidir.

Profilaktika inspektori mahalla mas'ullari bilan hamkorlikni samarali yo'lga qo'ygan. Ijtimoiy muhitni va oilalardagi vaziyatni, aholining muam-

molarini sinchkovlik bilan o'rganish orqali u hududdagi o'ziga xos jihatlarni yaxshi o'zlashtirib olgan. Kirishimlili, odamlar bilan ochiq muloqot qilishi, katta avlod vakillari – oqsoqollar bilan maslahatlashib ish olib borishi e'tiborga molik. Aynan shunday yondashuv tufayli ajrim yoqasida turgan 5 ta oiladagi nizolarga barham berildi.

– Mahallamizdagi aholi gavjum joylarga 20 ta kuzatuv kamerasi o'rnatilib, ular xizmat xonamga integratsiya qilingan, – deydi katta leytenant Hakimali Gulboyev. – Bu esa hududdagi vaziyatni doimiy nazorat qilish va zarur hollarda tezkor chora ko'rish imkonini bermiqda.

Katta leytenant Hakimali Gulboyev aholini ijtimoiy holatiga ko'ra toifalarga ajratib, ular bilan manzilli ish olib bormiqda. Xususan, «qizil» toifaga kiritilgan 34 ta oila bilan muntazam profilaktik tadbirlar o'tkazilmiqda. Shuningdek, uning amaliy ko'magi bilan 16 nafar ishsiz fuqaro tumandagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga ishga joylashtirildi.

Hududni obodonlashtirish va infratuzilmani yaxshilashda ham profilaktika inspektorining faolligi yaqqol sezilmiqda. Joriy yilning o'zida mahalladagi muhim masalalardan biri – ichimlik suvi muammosi hal etildi. 3,5 kilometr ichki ko'cha asfaltlanib, 3 kilometr yo'lga tosh-shag'al to'kildi. Albatta, bu ishlar tegishli tashkilotlar va mahalla faollari hamkorligida amalga oshirildi. Biroq aholi



tashvishini eshitish va masala yechimiga erishishda jonbozlik ko'rsatish inspektorning jamoatchilik bilan ishlash salohiyatini namoyon etadi.

Lavhamiz qahramoni ayni paytda IIV Akademiyasida sirtqi ta'lim shaklida tahsil olmqda. Bu unga kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda kelgusida xizmat vazifalarini yanada yuqori saviyada bajarish imkonini beradi.

**Feruza RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.

*Surxondaryo viloyati.*


## Qilni qirq yorib

**Zamonaviy texnologiyalar va ekspertlarning yuksak kasbiy mahorati jinoyatlarni tezkor fosh etishda muhim ahamiyat kasb etmqda. Buxoro viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazi xodimlarining daktiloskopik identifikatsiya tizimidan samarali foydalanishi natijasida jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash, shaxsi noma'lum murdalarning kimligini belgilash hamda huquqbuzarliklarni tezkor ochish borasida salmoqli natijalarga erishilmiqda.**

# QARMOQQQA ILINGAN BARMOQLAR

Shu yilning 14-may kuni Buxoro shahridagi «Korzinka-2» savdo majmuasining ikkinchi qavatida joylashgan, fuqaro M. Shokirovga (ism-sharifi o'zgartirildi) tegishli tilla taqinchoqlar do'konida o'g'rilik sodir etildi. Noma'lum shaxs do'kondan umumiy qiymati 24 million so'mlik turli xil tilla taqinchoqlarni o'g'irlab, voqea joyidan yashiringan.

Voqea joyidan olingan barmoq izlari viloyat IIB Ekspert-kriminalistika markazi avtomatlashtirilgan daktiloskopik identifikatsiya qilish tizimi orqali tekshirildi. Bir emas, beshta barmoq izi Toshkent viloyati Bekobod tumanida yashovchi,



1997-yilda tug'ilgan M. Kamolaning barmoqlariga tegishli ekani aniqlandi.

Shuningdek, shaharning A. Jomiy ko'chasida joylashgan xonadonlardan birida 11 million so'mlik uy-ro'zg'or buyumlari o'g'irlab ketilganlik holati yuzasidan olingan barmoq izlari soha xodimlarini shu shaharda yashovchi, jinoyat sodir etishga moyil shaxslar ro'yxatida turuvchi H. Usmonning uyiga yetaklab bordi. Avvaliga o'zini qonunni yaxshi biluvchi qilib ko'rsatib, xodimlarga «Meni ushlashga haqlaring yo'q, qani asos», deb baqirayotgan o'g'ri qarmoqqa barmog'idan ilinganini bilgach, ovozini keskin pasaytirib, indamay yo'lga tushdi.

Har ikkala holat bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Ta'kidlash joizki, markaz va uning hududiy bo'linmalari xodimlari tomonidan joriy yilning o'tgan davrida 4332 ta ekspertiza o'tkazildi. Barmoq izlari yordamida 38 ta jinoyat fosh etildi. Shaxsi noma'lum bo'lgan 5 nafar murdaning shaxsi aniqlandi. Shuningdek, jinoyat va huquqbuzarliklar yuzasidan berilgan 27 ta yozma topshiriq asosida tashqi qiyofa bo'yicha identifikatsiya qilish bazasi orqali videotasvir va fotosuratlarda aks etgan shaxslarning shaxsiga aniqlik kiritildi.

Sohada ko'p yillardan buyon fidokorona mehnat qilib kelayotgan tajribali xodim – viloyat IIB Ekspert-kriminalistika markazi katta eksperti, mayor Lazizjon Otamurodovning yuksak kasbiy mahorati hamkasblariga o'rnak bo'lmoqda. Ana shunday fidoyi ekspertlarning yangi uskunalaridan foydalanishni tez o'zlashtirib olishi va o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashuvi jinoyatlarning «issiq izida» fosh etilishida muhim rol o'ynamoqda.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Buxoro viloyati.*

Faxriylar — faxrimiz

# UMR ZIYNATI

Inson umrining mazmuni va qiymati uning el-yurt koriga yarash yo'lida chekkan zahmati va fidokorona mehnati bilan o'lchanadi. Ayniqsa, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlashdek sharaflari va mas'uliyatli burchni ado etgan soha xodimlarining hayot yo'li alohida e'tirofqa loyiqdir. Ana shunday mard va tajribali soha faxriylaridan biri — iste'fodagi mayor Rahimjon Isayevdir.

Rahimjon Isayev Toshkent viloyatining so'lim go'shalaridan biri bo'lgan O'rtachirchiq tumani davlat topgan. Qahramonimiz yoshligidan halollik va yuksak mas'uliyat hissi bilan ulg'aydi. U butun kuch-g'ayratini davlat va xalq xizmatiga bag'ishlagan.

1981-yilda ichki ishlar organlariga qabul qilingan R. Isayev dastlab Toshkent viloyati Ohangaron tumani IIBda tezkor vakil, katta tezkor vakil, keyinchalik bo'lim boshlig'i lavozimlarida samarali xizmat qildi. 1981–1990-yillar davomida iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni fosh etish, davlat va jamoat mulkini talon-toraj qilish holatlarining oldini olishda o'zining chuqur tahlilga asoslangan tezkor-qidiruv mahoratini namoyon etdi.

Istiqlolning ilk murakkab yillarida R. Isayev o'z faoliyatini tug'ilib o'sgan maskani — Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumani IIBda davom ettirdi. Bu yerda profilaktika bo'linmasi boshlig'i lavozimigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Jamoat tartibini saqlash va profilaktika yo'nalishidagi ko'p yillik zahmatli xizmati davomida hududda jinoyatchilikni jilovlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va aholi orasida huquqiy targ'ibot ishlarini tizimli tashkil etishga munosib hissa qo'shdi. U 16 yildan ortiq davom etgan mashaqqatli tezkor-profilaktik faoliyati mobaynida



sohada haqiqiy tajriba maktabini yaratib, 1997-yilda mayor unvonida O'rtachirchiq tumani IIB JTSX profilaktika bo'linmasi boshlig'i lavozimidan pensiyaga chiqdi.

Lavhamiz qahramoni namunali oila boshlig'idir. Turmush o'rtog'i Farida Isayeva bilan

5 nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazishdi. Ular 15 nafar nabira va 2 nafar chevaraning suyuqli bobo-buvisidir. Otaning izidan borib, 2 nafar farzand ham ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelmoqda. Podpolkovnik Laziz Isayev IIV Malaka oshirish instituti O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i, mayor Bobur Isayev esa Toshkent viloyati Nurafshon shahar IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash guruhi katta inspektori lavozimida samarali faoliyat yuritmoqda. Barcha farzandlar oliy ma'lumotli, 4 nafar nabirasi moliya va iqtisodiyot yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida tahsil olmoqda. Iste'fodagi mayor Rahimjon Isayev yoshlarimiz va ichki ishlar organlarining yosh xodimlari uchun haqiqiy ibrat maktabi, mardlik va halollik timsolidir. Zero, Rahimjon Isayevning bosib o'tgan mazmunli hayot yo'li va ichki ishlar organlaridagi xizmati Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat hamda burchga sadoqatning yorqin namunasidir.

**Abror POYONOV,**  
katta mutaxassis-muxbir,  
katta serjant.

Toshkent viloyati.

## O'rinbosarning bir kuni

# INSONDA ISHTIYOQ BO'LSA...

Navoiy viloyati IIB JXX YHXB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Murodjon Toshtemirov erta tongda odatdagidek kundalik ish rejasi yon daftariga ketma-ketlikda qisqacha qayd etib qo'ydi.

### ISH BOSHI — INTIZOM

Xizmat oldi yo'riqnomasi paytida lavhamiz qahramoni xodimlarning kiyinish qoidalariga rioya qilishini tekshirdi. Ayrimlariga yo'l qo'yilgan kamchiliklar yuzasidan tanbeh berdi. Shaxsiy tarkibga xizmat intizomiga qat'iy rioya etish, fuqarolar bilan xushmuomala bo'lish lozimligini eslatdi. So'nggi kunlarda yurtimizda

va jahonda yuz bergan muhim siyosiy voqealar, yangiliklarni yetkazdi. Kechki paytda jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari tashkil etilishini ma'lum qildi.

### XODIMNING IKKINCHI UYI

Podpolkovnik Murodjon Toshtemirov yo'riqnomadan keyin bir guruh xodimlarning xizmat xonalarini ko'zdan kechirdi. Bunda javonlardagi tartib, ish joyining ozodaligiga e'tibor qaratdi. Chunki tozalik, ozodalik bo'lgan joyda fayz-baraka bo'ladi, kishi ko'tarinki kayfiyatda ishlaydi. Aniqlangan ayrim kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan xodimlarga tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berdi.

### E'TIBORDA GAP KO'P

Qaysi soha bo'lmasin, xodimning oilasidan ko'ngli xotirjam bo'lsa, ishida unum bo'ladi. Shu bois Murodjon Toshtemirov vaqti-vaqti bilan xodimlarning yashash xonadonidan xabar olib turadi.

Safdor Jamshid Rayimov Navbahor tumanilik, Navoiy shahrida ijarada turadi. Uning o'g'li Javlonbek bosh miya bilan bog'liq og'ir xastalikni boshdan kechirayotgani uchun bu oilaga oson emas. Bunday vaziyatda insonga ba'zan moddiy yordamdan ham ko'ra, oddiy e'tibor, uning ahvolini tushunish, tashvishiga sherik bo'lish muhimroq. Murodjon aka bugun ana shu xonadonda bo'lib, Javlonbekning salomatligi, oilaning sharoiti va mavjud muammolar bilan qiziqdi. Suhbat davomida xodimga zarur hollarda tegishli yordam ko'rsatilishini aytdi.

Safdor Burxon Bozov ham oilasi bilan Navoiy shahridagi xonadonlardan birida ijarada turadi. Podpolkovnik M. Toshtemirov xodimning oila a'zolari bilan samimiy suhbatlashdi, ularning turmush sharoitini o'rgandi.

### SALOMATLIK GAROVI

Kun yakuniga yaqin xodimlar bilan vorkaut maydonchasida jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari tashkil etildi. Mashg'ulotlar jarayonida shaxsiy tarkibning jismoniy tayyorgarligi sinovdan

o'tkazildi. Murodjon Toshtemirov muntazam sport bilan shug'ullanish nafaqat jismoniy va jangovar shaylikni oshirishi, balki sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ham muhim ekanligini ta'kidladi.

O'rinbosarning bugungi ish kuni yakunlangan bo'lsada ertaga uni xodimlarning ma'naviy saviyasini oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq yangi vazifalar kutardi.

— Rahbar sifatida men uchun xodimning faqat xizmatdagi natijasi emas, uning inson sifatidagi holati ham muhim. Chunki oilasida xotirjamlik, jamoasida sog'lom muhit va qalbida o'z kasbiga ishtiyoq bo'lgan xodim zimmasidagi vazifasini sidqidildan bajaradi. Shuning uchun xodimlarni eshitish, muammosiga yechim izlash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni o'z vazifamning muhim qismi deb bilaman, — deydi podpolkovnik Murodjon Toshtemirov.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



**Mulohaza**

**B**ugungi kunda o'zbek madaniyati va shou-biznesi vakillari, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi taniqli blogerlar o'rtasida ommaviy diqqatni jalb qilishning «yangicha usuli» ommalashdi. Ilgari san'at ahli o'z iste'dodi, yangi ijod namunalari va yuksak odob-axloqi bilan xalq mehrini qozonishga intilgan bo'lsa, hozirda vaziyat tubdan o'zgardi. Zamonaviy media makonda «qora piar» ortidan kun ko'rish, atayin virtual mojarolar uyushtirish, jamoat joylarida bir-birini haqorat qilib, hatto jismoniy jarohat yetkazish darajasidagi mushtlashuvlarni sahnalashtirish odatiy holga aylanib bormoqda.

Eng ayanchlisi, ma'naviyat va madaniyat tarqatuvchisi bo'lishi lozim bo'lgan bu shaxslarning ortidan millionlab yoshlar ko'r-ko'rona ergashmoqda va ularning xatti-harakatlarini hayot mezoniga aylantirmoqda. Ushbu salbiy tendensiyaning tub ildizi aslida moddiy manfaatdorlik va virtual dunyodagi «obro'»ga borib taqaladi. Ko'plab internet «yulduzlari» uchun sahnalashtirilgan janjallar tomoshabinlar diqqatini jalb qilishning eng arzon va oson yo'lidir. Kuzatuvchilar va videoning ko'rinish soni ortishi ortidan ular o'z sahifalaridagi reklama narxlarini oshiradi, to'y va shou-xizmatlardagi gonorallarini sun'iy ravishda

# MA'NAVIYATGA ZARAR

**yoxud «qora piarchi»larni o'zimiz qo'llamayapmizmi?!**



**Hollivud yulduzi, aktyor Uill Smit Oskar marosimida boshlovchiga qo'l ko'targani uchun ko'plab yirik kinoloyihalardan chetlatilgan va uzoq vaqt jamoatchilik ta'qibida qolgan.**

Shu bilan birga, yoshlar ongida halol mehnat, ilm-fan yoki haqiqiy iste'dod qadrsizlanib, faqatgina shov-shuv va tarbiyasizlik ortidan tezda boyib ketish hamda mashhur bo'lish mumkin degan sarob tushuncha ildiz otadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, bunday xatti-harakatlarga nisbatan jamiyatning o'zi qat'iy chora ko'rishini kuzatish mumkin. G'arb va Sharqiy

Osiyo media makonida «bekor qilish madaniyati» tushunchasi mavjud. Agar biron bir taniqli shaxs, u millionlab auditoriyaga ega «yulduz» bo'lsa ham, jamiyat axloqiga zid ish qilsa, qora piar yoki zo'ravonlikka qo'l ursa, jamoatchilik uni bir zumda jazolaydi.

Masalan, Hollivud yulduzi, aktyor Uill Smit Oskar marosimida boshlovchiga qo'l ko'targani uchun ko'plab yirik kinoloyihalardan chetlatilgan va uzoq vaqt jamoatchilik ta'qibida qolgan. Janubiy Koreyada esa yulduzlar zo'ravonligi yoki feyk mojarolari aniqlansa, xalq tomonidan butunlay boykot qilinadi, yirik brendlar ular bilan tuzilgan million dollarlik reklama shartnomalarini darhol bekor qiladi va bu yulduzlar o'z faoliyatini butunlay yakunlashga majbur bo'ladi. Xorijda tomoshabinlar bunday shaxslardan ommaviy ravishda obunani bekor qiladi, shu orqali ular o'z ma'naviy makonini himoya qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, biz ham internetdagi bunday axloqsizlik va zo'ravonlik guruhlari-ga qarshi jamoatchilik nazoratini kuchaytirishimiz shart. Birinchidan, iste'molchi sifatida qora piar orqali kun ko'rayotgan «yulduzlar»ni kuzatishni to'xtatishimiz, ularga layk bosmaslik va muhokama qilmaslik orqali faol boykot e'lon qilishimiz kerak. Chunki kuzatuvchisiz va diqqat markazisiz qolgan har qanday piar o'z-o'zidan o'ladi. Ikkinchidan, virtual makonda bezorilik, haqorat va zo'ravonlikni targ'ib qilayotgan shaxslarga nisbatan huquqiy choralar va qonuniy javobgarlikni yanada kuchaytirish, ularni litsenziya hamda efir huquqlaridan mahrum qilish davr talabidir. Zero, madaniyatni asrash — millat o'zligini asrash demakdir.

**Abror POYONOV,**  
katta mutaxassis-muxbir,  
katta serjant.



## Salomatlik

# QO'RQISH EMAS, HIMOYALANISH KERAK

Bugungi kunda dunyo bo'ylab sog'liqni saqlash tizimining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lgan virusli hepatit millionlab insonlar sog'lig'iga jiddiy xavf solmoqda. Uning yillar davomida yashirin kechishi jigarida og'ir va qaytarilmas o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Organizmni zaharli moddalardan tozalovchi, moddalar almashinuvi va qon ivishida muhim rol o'ynovchi jigar faoliyatining buzilishi esa butun organizmga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mazkur kasallikka befarq bo'lmaslik lozim.

## "KIR QO'LLAR" KASALLIGI

Bu jigar to'qimasining yallig'lanishi bilan bog'liq kasallik bo'lib, viruslar, spirtli ichimliklar, dori vositalari yoki zaharli moddalar ta'sirida rivojlanadi va A, B, C, D, E turlariga bo'linadi. Ular orasida eng keng tarqalgani – "kir qo'llar kasalligi" deb ataluvchi hepatit A va E asosan iflos suv hamda gigiyena qoidalariga amal qilmaslik orqali yuqib, o'tkir kechadi. Ammo ko'pchilik bemorlar to'liq sog'ayib ketadi. Hepatit B esa qon, himoyalangan jinsiy aloqa, sterillanmagan asboblardan orqali va onadan bolaga o'tib, surunkali shaklga, hatto jigar sirrozi yoki saratoniga sabab bo'lishi mumkin. Hepatit C ko'pincha zararlangan qon orqali yuqadi va ko'p yillar davomida belgilsiz kechishi mumkin. Odam o'zini sog'lom his qiladi, ammo virus jigarni asta-sekin zararlab boradi. Hepatit D virusi mustaqil rivojlana olmaydi. U faqat hepatit B virusi bilan kasallangan insonlarda uchraydi.

Shuning uchun hepatit B ga qarshi emlanish hepatit D dan ham himoya qiladi.

## ASOSIY BELGILARI

Hepatit alomatlari kasallikning dastlabki bosqichida sezilmaydi. Lekin keyinchalik tez charchash va holsizlik, ishtahaning pasayishi, ko'ngil aynishi va qayt qilish, o'ng qovurg'a ostida og'riq yoki og'irlik hissi, mushak va bo'g'imlarda og'riq, tana haroratining ko'tarilishi, ko'z oqi va terining sarg'ayishi, peshob rangi to'qlashishi, teri qichishishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Ushbu belgilar paydo bo'lganda o'zboshimchalik bilan davolanmasdan, albatta, shifokorga murojaat qilish tavsiya qilinadi.

## GEPATIT YUQMAYDIGAN HOLATLAR

Ko'pchilikni "Gepatit maishiy muloqot orqali yuqadimi?" degan savol qiziqtiradi. Yo'q, hepatit B va C qo'l berib salomlashganda,

quchoqlashganda, birga o'tirganda yoki ishlaganda, bir idishdan ovqatlanganda, yo'talish yoki aksirish orqali, havo orqali, hasharotlar chaqishi orqali, basseyin yoki jamoat transportidan foydalanganda yuqmaydi.

## PROFILAKTIK CHORALAR

Kasallikning oldini olish uchun shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilish, faqat steril tibbiy va kosmetologik asboblardan foydalanish, shaxsiy gigiyena buyumlarini boshqalar bilan birga ishlatmaslik, xavfsiz jinsiy hayot tarziga rioya qilish, hepatit B ga qarshi o'z vaqtida emlanish, qon donorligi va tibbiy muolajalarda xavfsizlik talablariga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 287 million nafardan ziyod kishi surunkali B yoki C virusli hepatiti bilan yashamoqda. 2024-yilning o'zida 1,3 million nafar inson jigar sirrozi va jigar saratonidan vafot

etgan. Har yili 1,8 millionga yaqin yangi kasallanish holati qayd etiladi.

O'zbekistonda ham virusli hepatitga qarshi kurashish davlat siyosati darajasida olib borilmoqda. Respublika bo'yicha aholini skrining tekshiruvlaridan o'tkazish, xavf guruhidagi shaxslarni erta aniqlash, yangi tug'ilgan chaqaloqlarni hepatit B ga qarshi emlash hamda aholining tibbiy savodxonligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Erta tashxis, zamonaviy davolash usullari, sog'lom turmush tarzi va profilaktika choralari rioya qilish orqali jigar salomatligini saqlab qolish mumkin. Bu a'zo inson organizmining "kimyoviy laboratoriyasi" hisoblanadi. Uni asrash – o'z sog'lig'imiz va kelajagimizga g'amxo'rlik qilish demakdir. Kasallikdan qo'rqish emas, undan himoyalanih lozim.

**Evelina RAMAZANOVA,**  
IIV Tibbiyot boshqarmasi  
SENBM laboratoriyasi mudiri.

## Bekajon maslahati

## MAZALI VA FOYDALI



Sog'lom ovqatlanish – o'zimiz va yaqinlarimiz salomatligiga bo'lgan eng yaxshi e'tibordir. Bugun sizga tabiiy mahsulotlardan tayyorlanadigan shakarsiz shirinlikni tavsiya qilamiz. Uni tayyorlash uchun, avvalo, 2 dona bananni yaxshilab ezib, 1 dona tuxum bilan aralashtiring. So'ng 140 gramm suli yormasi, 1 choy qoshiq dolchin, ta'bga ko'ra yong'oq va mayizni qo'shib, bir xil massa hosil qiling. Tayyor aralashmadan kichik sharchalar yasab, patnisga terib chiqing va oldindan 180°C darajada qizdirilgan duxovkada taxminan 15–20 daqiqa davomida oltinrang tusga kirguncha pishiring. Banan va mayiz tabiiy shirin maza bergani bois unga shakar qo'shilmaydi.

## O'Z LIBOSINGIZNI O'ZINGIZ YARATING

Ayollar nafosati va go'zalligining barkamol ifodasi bo'lgan ushbu 2XL o'lchamdagi ko'ylak ham qulaylik, ham bejrimlikni xush ko'ruvchilar uchun ajoyib tanlovdir. Yengil va mayin matodan ishlangan bu libosni o'z qo'llaringiz bilan mukammal qilib tikishingiz uchun barcha aniq o'lchamlar taqdim etilgan. Bu ko'ylak ayollar javonidagi eng sevimli, ko'rkam liboslardan biriga aylanadi.



## BILIB QO'YGAN YAXSHI

**Kiyimlarni to'g'ri yuvish ham ularning rangi, shakli va sifatini uzoq vaqt saqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun oddiy, ammo foydali tavsiyalarga amal qilib, sevimli kiyimlaringizni yaroqli holda asrashingiz mumkin. Jumladan:**

\* oq, qora, rangli va nozik matoli kiyimlarni alohida yuving. Qora va rangli kiyimlarni teskari o'girish ularning rangini saqlashga yordam beradi;

\* kiyimlar erkin harakatlanishi uchun kir yuvish mashinasida yetarlicha joy qoldiring. Bu ularning yaxshiroq yuvilishiga yordam beradi;

\* kiyim-kechak yorlig'idagi belgilarga shunchaki yozuv deb qaramang. Chunki ularda matoga zarar yetkazmaslik uchun suv harorati, yuvish usuli va quritish bo'yicha ishlab chiqaruvchining aniq ko'rsatmalari aks etgan bo'ladi;

\* kir yuvish vositasini me'yorida ortiqcha qo'shmang, chunki u mato tolalarida qolib ketishi mumkin.

\* kiyim va poyabzallarni kuchli issiqlik manbalari yonida quritmang. Yuqori harorat mato va yelim qismlariga zarar yetkazishi mumkin.

**Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.**

## Shaxmat

# SAMARQAND AQL-IDROK MAYDONIGA AYLANDI

15–27-sentabr kunlari mamlakatimizda tarixdagi eng yirik shaxmat olimpiadasi bo'lib o'tmoqda



2026-yilning 15-sentabr kuni Samarqanddagi muhtasham «Silk Road Samarkand» xalqaro sayyohlik markazida 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Marosimda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov Prezident Shavkat Mirziyoyevning shaxmat olimpiadasi ishtirokchilariga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi. Shuningdek, xalqaro shaxmat afsonasi va FIDE prezidenti vazifasini bajaruvchi Vishvanatan Anand ham nutq so'zlab, Samarqandning yuqori darajadagi tayyorgarligiga yuqori baho berdi.

Samarqand olimpiadasi ishtirokchi davlatlar va jamoalar soni bo'yicha shaxmat tarixidagi barcha rekordlarni yangiladi. Turnirda jami 397 ta jamoa (erkaklar guruhida 207 ta, ayollar guruhida 190 ta) qatnashmoqda. Bu 2024-yilgi Budapesht olimpiadasidagi rekordni (380 jamoa) ortda qoldirdi. Dunyoning turli nuqtalaridan 1970 nafardan ziyod shaxmatchilar tashrif buyurgan bo'lib, ularning 238 nafari xalqaro grossmeysterlardir. Murabbiylar, hakamlar va rasmiy delegatsiyalar bilan birga Samarqand 4 mingdan ortiq mehmonni qabul qildi.

Samarqand nafaqat asosiy olimpiadaga, balki bir vaqtning o'zida 3-Butunjahon shaxmat paralimpiadasiga ham mezbonlik qildi. Shuningdek, Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) ning 97-Kongressi o'tkazilishi ham ko'zda tutilgan. 26-sentabr kuni o'tadigan Bosh assambleyada esa FIDEning yangi prezidenti saylanadi.

Samarqanddagi ushbu tarixiy voqea nafaqat mamlakatimizda shaxmat sportining yanada rivojlantirishiga, balki yangi jahon chempionlarining kashf etilishiga xizmat qilishi shubhasiz.

## Voleybol

# QARSHIDA KUCHLILAR ANIQLANMOQDA

Qarshi shahridagi Xalqaro Innovatsion Universiteti mezbonligida U-14, U-16, U-18 va U-20 yosh toifalari o'rtasida o'tkazilayotgan Sohil voleyboli bo'yicha O'zbekiston chempionati qizg'in pallaga kirdi. 12–20-sentabr kunlari bo'lib o'tayotgan musobaqada respublikaning turli hududlaridan kelgan jamoalar mamlakat chempionligi uchun bahs olib bormoqda.

Bugunga qadar U-14 va U-16 yosh toifalarida g'olib hamda sovrindorlar nomi ma'lum bo'ldi.

### U-14 Qizlar

1. Xorazm viloyati
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi
3. Sirdaryo viloyati

### U-14 O'g'il bolalar

1. Samarqand viloyati
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi
3. Namangan viloyati

### U-16 Qizlar

1. Toshkent viloyati
2. Jizzax viloyati
3. Xorazm viloyati

### U-16 O'g'il bolalar

1. Qashqadaryo viloyati
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi
3. Jizzax viloyati

U-18 va U-20 yosh toifalaridagi bahslar esa davom etmoqda. Hal qiluvchi uchrashuvlar yakunida navbatdagi chempion va sovrindorlar aniqlanadi.



## Bilib qo'yg'an yaxshi

# ARALASH JANG SAN'ATI DAVOMCHILARI



Hozirgi kunda butun jahon bo'ylab aralash jang san'ati, ya'ni MMA eng ommaviy sport turlari qatoriga qo'shildi. Ayniqsa, UFC, «Bellator» ONE Championship promoushenlari o'ziga xos brendga ham aylanib ulgurdi. Albatta, O'zbekistonda ham mazkur yakkakurash turining o'z tarixi bor. Garchi, yaqindagina mamlakatimizda rasman ushbu sport turiga ruxsat berilib, O'zbekiston MMA assotsiatsiyasi tashkil qilingan bo'lsa-da, sportchilarimiz ancha yillar avval xorijda o'z janglarini o'tkazib, yurtimiz sha'nini munosib himoya qilib kelishgan.


Bu jang san'atining mamlakatimizdagi ilk fidoyilari sifatida Sunnat Ilyasov (Samarqand), Shavkat O'raqov (Navoiy), Ayubxon Kamalov (Namangan), Gulbahor Amantayeva (Toshkent) larni e'tirof etish kerak.

Muzaffar Rajabov (Buxoro), Murod Xonto'rayev (Toshkent), Mansur To'g'izboyev (Samarqand), Amin Ergashev (Navoiy), Sirojiddin Eshonboyev (Toshkent), Aleksandr Stolyarov (Toshkent), Mahmud Muradov (Buxoro), Nursulton Ro'ziboyev (Andijon), Azamat Bahodurzoda (Toshkent)lar ikkinchi avlodning ajoyib vakillari hisoblanishadi.

Hozirgi yosh avlod safida «Bellator» da o'z janglarini o't-

kazayotgan Zarruh Adashev (Samarqand), FFC ning og'ir vazn toifasida chempionlik kamari sohibi Azamat Nuftillayev (Qashqadaryo), GFC chempioni Lilya Shakirova (Toshkent), Ahliddin Mirzadavlatov (Andijon), Avliyoxon Hamidov (Andijon), Bahodir Boqiyev (Qashqadaryo), Hasan Bozorov (Buxoro), Humoyun Ibragimov (Toshkent viloyati) kabi yurtdoshlarimizni ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi kunga kelib, yuzlab yoshlarimiz ushbu yo'nalishda faoliyat olib borishmoqda. Ishonamizki, kelgusi musobaqalarda MMAchilarimiz ulkan yutuqlar bilan Vatanimiz sharafiga xalqaro maydonlarda munosib himoya qiladilar.



## Jumboq



Bir maktabda muallimning hamyoni yo'qolib qoldi. Hamyonni sinfdagi bolalardan biri olganiga uning shubhasi yo'q edi.

Muallim bir hiyla ishlatishga qaror qildi. Ertesi kuni u maktabga bitta xo'rozni qo'ltiqlab keldi va bolalarni to'plab shunday dedi:

– Aziz bolalar, ming afsuski, orangizdan birov hamyonimni olibdi. Men uni qanday topishni bilaman. Mana bu xo'rozni bir qorong'i xonaga qamayman. Har biringiz bir martadan xonaga kirasiz va xo'rozning boshini asta silab chiqasiz. Aybdor bolaning qo'li xo'rozning boshiga tegishi bilan u qichqirib yuboradi. Shu tariqa o'g'ri aniqlaymiz.

Bolalar bitta-bitta xonaga kirib chiqishdi. Ammo xo'rozning ovozi chiqmadi.

– Ustoz, xo'roz qichqirmadi-ku, demak, o'g'ri oramizdan emas ekan-da, – chuvillashdi bolalar.

– O'g'ri shu yerda, – dedi muallim kulimsirab.

Keyin esa hamma bolalarga kaftlarini ochib ko'rsatishni buyurdi. Hamma bolalar kaftlarini ochib ko'rsatishdi. Muallim darsdan keyin bolalardan birini yoniga chorladi.

– Hamyonimni sen olgansan, to'g'rimi? – dedi.

Bola boshini quyi solib aybiga iqrar bo'ldi. Muallim unga o'g'rilik qanchalik noxush amal ekanini tushuntirgach, bola qaytib bu ishga qo'l urmaslikka va'da berdi.

**Savol: muallim o'g'ri aniqlash uchun qanday yo'l tutgan?**

(Jumboqning javobini @PostdaUz\_botga yuborishingiz mumkin)

**Gazetamizning 37-sonida chop etilgan jumboqning javobi:** shamol. Shamol esgach, daraxt shoxlari harakatga kelib, bog'lab qo'yilgan ruchkalar turli chiziqlar chizgan.



(Oxiri. Boshi o'tgan sonda.)

Amakimning: «Bugun negadir xayoling parishon. Senda bir gap bor», – deganini eslayman. Dasturxon atrofida taom tanovul qilar ekanman, miyam irodamga qarshi va vujudimdan tashqarida begona bir a'zo kabi ishlab, fikr yuritar, rejalar tuzayotgan edi. Xayolimdagi fikrlarga hukmim o'tmayotgandi. To'g'ri-da... Bu sho'rlik qariya baribir tez orada vafot etadi. Kutubxona yigirma besh ming liraga... Saroy kabi uy, bog', boshqa mol-mulk... Bularni yetmish-sakson ming liraga sotish mumkin, jami yuz ming liralik davlat! Baribir keyinchalik bu yerda yashamayman. To'g'ri Yevropaga jo'nab ketib, rohat va huzur ichida hayot gashtini surardim. Biroq... Yo bu qari chol uylanishga yoki shunga o'xshash bir ishga qo'l ursachi... Shunday bo'lishi mumkinmi? Tabiiyki, bo'lishi mumkin. U holda yuz ming lirani tushingda ko'rasan. Demak... Bunday ehtimolni bartaraf qilish kerak.

Nigohimni amakimga qaratdim. Kichik qoshig'i bilan palovni og'ziga olib borayotgan edi. Soqoli ostidagi oppoq va ori bo'yniga ko'zim tushdi. O'sha joyni ikki daqiqa mahkam bosib turilsa... Yuz ming lira shu zahotiyoq meniki bo'lardi! Biroq... Turli qaramaqarshi fikrlar miyamda gujg'on o'ynayotgandi.

Olma artayotgan amakimga qaradim. U shu paytgacha nimalar deganini eshitmadim. Kech kirib, o'zim uchun ajratilgan xonaga ketdim. Zehnimdagi jinoyat rejasi o'zidan o'zi shakllanib borardi. To'shak ustiga cho'kdim. Xonada yonib turgan sham shu'lası devorda shaklsiz soyalarni qimirlatar edi. Yuz ming lira!.. Ko'zim javon oyna-



sidagi bir sharpaga tushdi. Menga tikilib turardi. Sochlari hurpayib, bir sirtlon kabi ko'zlari qonga to'lgan edi. Bu mening ko'zgudagi aksim edi. Ko'rmaslik uchun yuzimni burdim. Tun bo'yi mijja qoqmadim. O'zimni ko'rmaslik uchun oyna tomonga qaray olmadim. Ha, men qotilman. Bir jinoyatchiman. Butun axloq tuyg'ulari mening nazarimda menga buyruq bergan iblis bilan kurashib chiqdim...

Ertalab amakimning yoniga tushdim. Soddagina qariya dahlizda sut ichib o'tirardi. Meni kulib qarshi oldi:

– Nima bo'ldi, yaxshi uxlay olmadingmi? Ranging sarg'ayib ketibdi...

– Yo'q, yaxshiman, hammasi joyida, – deya oldim zo'rg'a.

Keyin birdan qo'llaridan o'pa boshladim. Ko'zlarimdan yosh oqardi. Qurbon qilingan tana ustida pushaymon bo'lgan bir qotildek his qilardim o'zimni.

Umar SAYFIDDIN

## «QOTIL» MEROSXO'R

– Sizdan bir iltimosim bor, – dedim.

Meni bunday g'alati holatda ko'rgan amakim hayron bo'lib qarab qoldi.

– Senga nima bo'ldi, o'g'lim, tinchlikmi?

– Hech narsa! Va'da bering, aytganimni qilasiz!

– Ayt, nima istaysan?

– Rad etmayman deb so'z bering!

– Xo'p, ayt, so'z beraman.

– Men sizning vorisingizman, to'g'rimi?

– Shubhasiz.

– U holda butun boyligingizni hali hayotlik chog'ingizda milliy tashkilotlarga vasiyat qilishingizni istayman.

– Lekin nima uchun?

– Men shunday bo'lishini xohlayman.

– Sababini tushuntirsang-chi.

Tunda xayolimga nimalar kelganini, yuz ming lirani qo'lga kiritish uchun uni o'ldirishni reja-

lashtirganimni aytmoqchi bo'ldim, lekin jur'at etmadim. O'zimda yo'q fazilatni o'sha jirkanch ma'naviyatimni niqoblash uchun parda qildim. Yolg'onlar to'qiy boshladim. Juda yosh ekanimni, ehtimol bu qimmatli kutubxonani sotib, chet elga chiqib ketishim mumkinligini bildirdim. Bu qimmatli meros millatga qolsin, dedim.

– Xo'p, mayli, – dedi qariya, – davlatga beraylik. Biroq boshqa mulklarimni...

– Ularni ham istamayman, amaki. Qancha bemorlar, yetimlar bor. Artish kerak bo'lgan ko'z yoshlar, bog'lash lozim bo'lgan yaralar, tasalliga muhtoj beva-bechoralar, yetim-yesirlar, qarovsiz qolganlar bor!..

Men gapirayotganimda amakim hayron bo'lib qarab turar, ko'zlari quvonch va g'ururdan porlardi. U o'z qarshisida pastkash bir maxluq turganini ang'lay olmadi. Qaddini rostladi, meni qattiq bag'riga bosib, peshonamdan o'pdi va:

– Sen bilan faxrlanaman, – dedi.

\*\*\*

Ha, ruhimdagi insoniylik tim-soli bo'lmish o'sha uch axloq mash'alasi abadiy so'ndi. Bir kecha ichida qo'rqinchli va jirkanch qotilga aylandim. Hozir esa zulmat cho'kkan bir cho'ldaman! Endi «yaxshilik, to'g'rilik, go'zallik» jannatiga hech qachon qayta olmayman. Yolg'onlarimga ishongan sho'rlik qariya esa mening kabi ichki dunyosining ovozidan cho'chib qochgan, qo'rqoq bir kimsani hamon «go'zal fazilat sohibi» deb biladi va bu tuban kishiga «Mening faxrimsan!» – deydi.

Turk tilidan Gulchehra AZIMOVA tarjimasi

### Mitti hikoyalar

## ONA

Ona bedavo dardga yo'liqdi. Davoning narxi baland edi...

Onaning besh farzandi bor edi. Ikki o'g'il va uch qiz. Ular uyli, joyli bo'lib, bir-biriga suyanib yashashardi. Chunki ularning ham farzandlari bo'lib, ro'zg'orlarini amallab tebratishardi. O'talari ikki yil burun qazo qilgan edi...

Farzandlar o'zaro maslahatlashib qo'llaridan kelgancha onalariga madad bo'lish, biror-bir yordam berish uchun yig'ildilar. Ona ularning hol-ahvolini ko'rib, dardini doston qilmadi. «Do'xtirlar tashxis qo'yishda yanglishibdi, – dedi. So'ng sekin shivirladi: – Men soppa-sog'man, jonim bolalarim, hech narsani o'ylamanglar, tashvish chekmanglar».

Bolalar asta boshlarini ko'tarib, bir-birlariga «xayriyat» deganday yengil nafas oldilar.

Ona ulug', bolalar esa hali bola edi.

Ona, sho'rlik va mehribon ona bir haftadan so'ng vafot etdi...

Ashurali JO'RAYEV

## MARDLIK

Ayol asosiy kuchni oiladan oladi.

Ayolning aybini yashirgan erkak eng mard kishidir.

Bir kuni kelinim tort pishirib yonimizga qo'ydi, juda mazali bo'libdi. Turmush o'rtog'im yeb bo'lgach, shunday dedi:

– Rahmat, qizim! Xuddi qaynangiz pishirgan tortga o'xshatib pishiribsiz.

Vaholanki, men umrimda shirinlik pishirmagan edim. Yer ostidan unga qarab jilmayib qo'ydim.

Hurmatoy AZIMSHER qizi



IIV Qorovul qo'shinlari rahbariyati, shaxsiy tarkibi va vazirlik Faxriylar kengashi ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi mayor **Hamid AHMEDOVning** vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a'zolariga hamdardlik bildiradi.

IIV Birlashgan tahririyati jamoasi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Nosirjon Jo'rayevga o'g'li **SHOHIDBEKning** bevaqt vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.





## TANLOV MAYDONIDA KIMLAR?

Ichki ishlar organi xodimi-ning kuni hamisha ham reja asosida kechavermaydi. Navbatchilik. Chaqiruv. Fuqarolar murojaati. Profilaktik tadbir. Hisobot. Kutilmagan vaziyat... Ba'zan ish kuni qachon boshlanganini bilasan-u, qachon tugashini bilmaysan.

Shunday kasb egasining kitob o'qishga vaqti bormi?

Bu savolga «vaqt yo'q» deb javob berish oson. Ammo Mahmud Zamaxshariy nomidagi Xorazm viloyat axborot-kutubxona markazida viloyat ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan «Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovini kuzatar ekansiz, boshqa bir xulosaga kelasiz: mutolaa uchun vaqt topilmaydi — vaqt ajratiladi.

Tanlov maydonida xizmat kiyimidagi xodimlarni ko'rib, beixtiyor o'ylaysan: kechagina fuqarolar murojaati bilan ishlagan, xizmat vazifasini bajargan bu insonlar bugun asarlar, mualliflar, qahramonlar va hayotiy g'oyalar haqida bahslashmoqda.

Demak, forma insonning ichki dunyosini chegaralab qo'ymaydi.

## KITOB XODIMGA NIMA BERADI?

Bu savolning javobi faqat «bilim beradi» degan bir jumla bilan tugamaydi.

Ichki ishlar organi xodimi har kuni turli xarakterdagi odamlar bilan uchrashadi. Kimdir jahli chiqqan holda keladi, kimdir yordam izlaydi, yana biron o'z dardini aytishga qiynaladi.

Bunday paytda faqat qonunni bilishning o'zi yetarli?

Albatta, kasbiy bilim bir-lamchi. Ammo insonni tinglash, uning ruhiy holatini anglash, bir og'iz so'zni o'rnida ishlatish, murakkab vaziyatda hissiyotga berilmay fikr yuritish ham katta mahorat talab qiladi.

Mutolaa esa ana shu qobiliyatlarni charxlaydi. Kitob insonni ko'proq va murakkab-roq begona taqdirlar bilan uchrashtiradi. Boshqaning dardini his qilishga, voqeaga faqat bir tomondan emas, turli nuqtayi nazardan qarashga o'rgatadi. Lug'at boyligini oshiradi, fikrni aniq ifodalashga yordam beradi.

Shu ma'noda, kitob ichki ishlar organi xodimi uchun xizmatdan tashqari mashg'ulot emas, balki uning ma'naviy va kasbiy kamolotiga xizmat qiluvchi vositalardan biridir.

## VAQT YO'QMI YOKI ODATMI?

Bugun deyarli har birimiz «vaqtim yo'q» deymiz. Ammo telefonda ijtimoiy tarmoqlarni kuzatishga yarim soat topiladi. Qisqa videolarni ko'rsangiz —

biri ortidan yana biri ochiladi. Kun oxirida esa bir necha sahifa kitob o'qishga fursat qolmagandek tuyuladi.

Xizmatdagi xodim uchun bu masala yanada murakkab. Chunki uning bo'sh vaqti oddiy fuqaronikidek barqaror emas.

Shunday bo'lsa-da, tanlov ishtirokchilari bir narsani amalda ko'rsatdi: mutolaa ko'p vaqt talab etuvchi marosim emas, balki muntazamlik talab qiladigan odatdir.

Kuniga o'n sahifa.

Navbatchilikdan keyin yigirma daqiqa.

Dam olish kuni bir bob.

Shu tariqa bir oyda bir necha kitobni o'qib tugatish mumkin.

Eng muhimi — kitob javonda emas, inson tafakkurida yashashi kerak.

...Tanlovdan keyin yana o'sha savol xayolga keladi: g'olib bo'lish uchun kitob o'qiladimi yoki mutolaa qilgan insonning o'zi hayotda yutib boraveradimi?

Ehtimol, ikkinchisi to'g'riroqdir. Chunki mutolaaning eng katta sovrini diplom emas, balki insonning fikrlashi, dunyoqarashi va so'zida namoyon bo'ladigan o'zgarish, ma'naviy yuksalishdir.

**Nilufar JABBOROVA,**  
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

## «Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovi g'oliblari



1-o'rin — Urganch tumani IIB xodimi  
katta leytenant Dilshod Bekchanov.



2-o'rin — Shovot tumani IIB xodimi  
katta leytenant Odila Iskandarova.



3-o'rin — Urganch shahar IIB xodimi  
leytenant Muhtaram Rahimboeva.

**MUSIQIY TANAFFUS**

*Davlatning borida, avjning zo'rida,  
Yo'qlab kelar hatto begonalar ham.  
Davlatning yo'g'ida, baxting sho'rida,  
Saloming olmaydi devonalar ham.*

**Shamsiddin TO'RAYEV,**  
shoir.

**Nuriddin HAYDAROV,**  
O'zbekiston xalq artisti.

Donolar so'zlaydi,  
biz yodga solamiz

**Qiz ko'ziga  
surma surishi  
uchun yigit ko'ziga  
Vatan tuprog'ini  
surishi kerak!**

## MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

### Bosh muharrir

podpolkovnik  
Xurshidbek RO'ZIYEV

### Bosh muharrir o'rinbosarlari

podpolkovnik  
Azizjon FAYZIYEV  
mayor  
Aziza BOHODIROVA

### Mas'ul muharrirlar

Erkin SATTOROV  
Sarvar SOBIROV

### Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

### Navbatchilar

Temir QURBONOV  
Yuliya MUSTAFAYEVA

### TELEFONLAR:

71-231-33-88;

### Obuna masalalari

bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r

23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va

moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

460010860262877031101179003

STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va

axborot agentligi tomonidan

2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam

bilan ro'yxatga olingan.

Manziliz: 100070, Toshkent shahri,

Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 2752 .

Bosilish — ofset usulida.

Bichimi — A3.

Hajmi — 6 bosma taboq.

50674 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**

Yakka tartibda — 180.

Tashkilotlar uchun — 366.

Bosishga topshirish vaqti — 22.00.

Bosishga topshirildi — 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida

chop etildi.

Korxona manzili: 100206

Yunusobod tumani,

Yangishahar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.